

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 37.018

ABDUMANNOTOVA NARGIZA ABDUMAJID QIZI

O'SMIRLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING
PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga

ruxsat berildi.

Pedagogika kafedrasini mudiri

dots.K.Hasanova-----

“---”-----2017 y.

Ilmiy rahbar:

p.f.n,dots. K.Hasanova

M.O'.

SAMARQAND-2017

MUNDARIJA:

KIRISH	3
I O'SMIRLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING BOB. ILMIY-NAZARIY ASOSLARI....	13
1.1 O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash,pedagogik muammo sifatida.....	13
1.2 O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning o'rganilganlik darajasi .	19
1.3 O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning hozirgi holati va imkoniyatlari.....	29
Birinchi bob yuzasidan xulosa.....	40
II O'SMIRLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING BOB. MAZMUNI, SHAKLVA MEYORLARI.....	42
2.1 Dars jarayonida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni va mohiyati	42
2.2 O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda tarbiyaviy tadbirlarning imkoniyatlari.....	52
2.3 O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy urf-odat va an'analardan foydalanish	61
Ikkinchi bob yuzasidan xulosa.....	67
III O'SMIRLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH BOB YUZASIDAN O'TKAZILGAN TAJRIBA-SINOV NATIJALARI VA SAMARADORLIGI	68
3.1 O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashga oid o'tkaziladigan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.....	68
3.2 O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari va tahlili.....	72
Uchinchi bob yuzasidan xulosa.....	77
Xulosa va tavsiyalar.....	78
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	85
Ilovalar.....	90

KIRISH

Muammoning dolzarbligi: O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingandan keyin mamlakatimiz ta’lim tizimida keng qamrovli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyati mazmuni yangilandi, yangi davlat ta’lim standartlari va yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich ta’lim jarayoniga joriy etilmoqda. O‘quvchi- yoshlar zamonaviy darsliklar bilan ta’minlanmoqda. Qo‘lga kiritilgan yutuqlar zaminida oila tarbiyasining o‘rnini alohida e’tirof etish maqsadga muvofiq. Sababi, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda hech shubxasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki, insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiatini, dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar-yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo‘ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo‘lgan odamiylik fazilatlarini va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma’naviy olamini tashkil etadi»¹ degan edi.

Oila jamiyatning kichik bo‘g‘ini sifatida muayan xalq millat yoki elatning milliy xususiyatlarini ifoda etadi. Oilalarning mustahkam bo‘lishi ko‘p jixatdan ijtimoiy tuzumning iqtisodiy, ma’naviy rivoji, jamiyatda amal qilinayotgan ma’naviy-axloqiy me’yorlar bilan belgilanadi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda inson o‘z umrida oladigan barcha informatsiyalarning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda olar ekan. Shuning uchun ham oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun avvalo har

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch-T:.”Ma’naviyat”,2008-52-53b.

bir xonadonda ma'naviy iliqlikni o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek xalki azaldan o'zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turgan. Farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin bolalarimizga yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish doimo dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligini bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida «Biz ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz»,deb takidladi.-1.

Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu-saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxt-saodat faqat boylik, mol-u mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli,mexnatsevar farzand nafaqat ota-onaning balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Shu bois, yoshlarimizni jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va mustaqil fikrga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lgan oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylangan.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasi haqida fikr yuritib, Abdurauf Fitrat bobomizning quyidagi fikrlarini endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini juda istagan holda ta'kidlab o'tgan edi, ya'ni: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi,davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jaxongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi,e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq".

Demak, jamiyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan oilaning farzand tarbiyasidagi o'rni beqiyos ekanligiga hech qanday shubha yo'q.

Bosh qomusimiz –mamlakat Konstitutsiyasida oilaning ijtimoiy maqomi aniq belgilab qo‘yilgan. Shu asosda Oila, Fuqorolik, Uy-joy kodekslari va boshqa tegishli hujjatlari qabul qilinib, bu borada huquqiy poydevor yaratildi. Agar ushbu masalaning tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1998-yilni mamlakatimizda «Oila yili» deb e‘lon qilinishi bilan boshlanishi ham ko‘p narsani anglatadi. Muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek «Bu yorug’ olamda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne‘mat bor. Har qaysi ongli inson, jondan aziz farzandining baxtini kamolini o‘ylab, hamisha orzu-intilishlar bilan yashaydi, o‘z zurriyodining har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lishini istaydi.

Sog‘lom bola sog‘lom avlod orzusi ajdodlarimizdan bizga o‘tib, kelayotgan qon-qonimizga singib ketgan azaliy intilishdir. Agar ota-bobolarimizning turmush va tafakkur tarziga nazar solsak, ular insonning nasl-nasabi, yetti pushtining tozaligi, avlodining sog‘lomligiga juda katta e‘tibor berganini ko‘ramiz. Sog‘lom bola sog‘lom va ahil oilaning mevasi bo‘lib, faqatgina sog‘lom ota va onadan sog‘lom bola tug‘iladi. Biz shunday muhim hayotiy qadriyatlarni jamiyatimizda yanada chuqur qaror toptirish, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yanada yuksak bosqichga ko‘tarishga harakat qilmoqdamiz.

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, birinchi navbatda, oila, onalik va bolalikni himoya qilish masalasini o‘zimiz uchun eng muhim ustivor vazifa sifatida belgilab oldik.²

Bu borada zarur huquqiy–me‘yoriy bazani, takomillashtirish, millatning genafondini yaxshilash, aholining hayot darajasini va sifatini oshirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyatning ma’naviy qiyofasi ko‘p jihatdan oilalarimizda farzandlarimizga berilayotgan tarbiyaga bog‘liq.

² Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch-T.:”Ma’naviyat”,2008-52-53b.

«O‘zbek milliy mentalitetining muhim jihatlaridan biri—jamiyat hayoti, odamlar turmush-tarzi ko‘proq an‘ana va urf-odatlar orqali boshqariladi. O‘zbekona rasm-rusumlarga qat‘iy amal qilingan oilalarda o‘g‘il uylantirish, kelin tanlash, qiz uzatish, kuyov tanlash paytlarida ota-ona va qarindosh — urug‘lardan alohida xushyorlik va e‘tibor talab qilinadi. Quda bo‘lish tomonlar haqida tegishli ishonchli ma‘lumotlarga ega bo‘lishmaguncha ikki yoshning bir yostiqa bosh qo‘yishiga oila qurishga fotixa berilmaydi. Avvalambor, bo‘lajak kelin va kuyovning salomatligi, jismoniy nuqsonlardan holi bo‘lishi, quda tomonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, jamoada tutgan o‘rni, mavqei va obro‘-e‘tibori hisobga olinadi. Shuning uchun ham xalqimiz «Teng tengi bilan,tezak qopi bilan» deb bekorga aytmagan. Axir kuyov yoki kelin bo‘lmish tomonning aqli,odobi xusni-jamoli bir o‘lcham bo‘lsa, ularning ota-onalari,qarindosh-urug‘lari avlodining jamoadagi mavqei va bu xususidagi jamoatchilik fikri ikkinchi, ammo aksariyat hollarda hal qiluvchi omil vazifani o‘taydi. Ota-onalar uchun farzandni yaxshiga qo‘shish, bu borada xato qilib qo‘ymaslik jamoa, jamiyat ko‘pchilikning kengashli fikri muhim rol o‘ynaydi»,³ deb ta’kidlaydi etnolog olim Adhamjon Ashirov.

Bolalarni to‘g‘ri tarbiyalash, samarali o‘qitish uchun bola rivojlanishiga doir o‘zgarishlarni, yosh davrlariga xos xususiyatlarni bilish va hisobga olish lozim. Chunki ularning o‘sishi, rivojlanishi, ruhiy jihatdan taraqqiy etishi turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi. Jumladan, maktab yoshidagi o‘rta o‘quvchilar (O‘smirlar) davri, -12-13 yoshdan 15-16 yoshgacha bo‘lgan davrdagi o‘quvchilar o‘smirlar deyiladi. Bu bolaning jismoniy va ruhiy taraqqiyotida psixik o‘zgarishlar ro‘y berishi sababli bu davr o‘tish davri deb aytiladi. Shuningdek, bu davr balog‘at davri ham deyiladi. Qiz bolalar 13-15 yoshda, o‘g‘il bolalar 16-17 yoshda balog‘atga yetadilar. Bu davr keskin o‘zgarishlarga boy bo‘lganligi sababli o‘smirlarning xulqida bir-biriga zid holatlar goh bolalarcha

³ Ashirov.A. O‘zbek milliy mentaliteti haqida ba’zi mulohazalar.»O‘zbek xalqining kelib chiqishi:ilmiy-metodik yondashuvlar,etnologiyasi va etnik tarix».T:2004,54 bet.

serharakatlilik, goh jo'shqinlik, goh tushkunlik, goh bo'shanglik, ishni paysalga solish o'jarlik qilish holatlari uchraydi. Balog'at davrida o'smir bola o'zida katta kishilarning sifatleri paydo bo'layotganini seza boshlaydi, katta kishi bo'lgisi keladi, kattalarga xos xatti harakatlar ham qila boshlaydi.

O'smir yoshdagi bolalarda erkaklik va ayollik tashqi belgilari-ovozning o'zgarishi paydo bo'ladi. O'smir bolalar ruhiyatida qaxramonlik ishlariga, romantika, o'zini qahramonlar qiyofasida tasavvur etish kabi qiziqishlar juda kuchli bo'ladi. O'smirlarda do'stlik va birodarlik xislari sirdosh do'st topish istagi kuchli bo'ladi.

O'smirlarning o'ziga xos tomonlaridan yana biri o'rtoqlarining diqqat-e'tiborida bo'lishni yoqtiradi. O'quvchilar tomonidan o'ziga do'st topilmasa, ko'cha bolalari ichidan «do'st» topib, uning tuzog'iga ilinib qolishi ham hech gap emas. Shu bois, ota-ona va o'qituvchilarning birinchi galdagi vazifasi o'smirlarni bo'sh qo'ymaslik, ularni imkoni boricha biron-bir ish bilan shug'ullantirish, qiziqishlarini mazmunli tomonga burishdir. Demak, o'smir bilan munosabatda sabr-toqat, vazminlik, ma'lum holda unga mustakillik berish, jamoada hayotga oid ishlar yuzasidan u bilan maslahatlashish, uning tashabbus va imkoniyatlardan foydalanish, bu yoshdagi o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalashning garovidir. Muximi, uning shaxsini hurmat qilish, kamsitmaslik, katta bo'lib qolganligini tan olishdir. Jon-Jak Russo o'smirlik davrini «ikkinchi marta tug'ilish» deb atagan. Shu jihatdan olganda o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash ota-onadan, o'qituvchi va tarbiyachilardan chuqur bilim, tajriba, izlanishlarni talab qiladi.

Ma'lumotlarga ko'ra mamlakatimizda bir yilda o'rtacha uch yuz mingta oila qurilmoqda, oilalarning soni sakkiz millionga yetdi. Boshqacha aytganda 8 million ota yoki 8 million ona farzand tarbiyasi bilan shug'ullanmoqda. Ammo respublikamizda turli sabablarga ko'ra oila ajralishlarining soni ko'payib borayotgani har bir sog'lom fikrli insonni o'ylantirishi tabiiy. Respulika "Oilaviy" telekanalining 2017-yil may oyining ko'rsatuvlarining birida turli sabablarga ko'ra

oila ajralishlarining soni bir yilda 19 mingtani tashkil etayotganini ta'kidlangan edi.

Ushbu jarayondagi muammoning sabablaridan biri o'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog'liq ekanligi shubhasiz. Aniqrog'i, o'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oila pedagogikasi va psixologiya fanlarining imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanmaslik ota-onalarda pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, ba'zi oilalardagi nosog'lom muhit, o'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli tashkil etilmaganligi, bu borada asrlar sinovidan o'tgan xalq pedagogikasining yutuqlaridan milliy urf-odat va an'analarimizdan yetarlicha foydalanmaslik, muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Oila, oila tarbiyasi o'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash kabi masalalar faylasuf, pedagog, psixolog, siyosatshunos, huquqshunos tarixchi va boshqa sohalarning yetakchi vakillari tomonidan muayyan ravishda o'rganilgan. Faylasuf olimlardan I.Mo'minov, M.Xayrullayev, E.Yusupov, J.Tulenov, A.Jalol, M.Imomnazarov, Q.Nazarov A.Asqarovlar va boshqalar tomonidan oilaning jamiyatda tutgan o'rni, o'zbek oilasining o'ziga xos mentaliteti, o'zbek oilalarining shakllanish jarayonlari to'g'risida o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida, maqolalarida muayyan darajada yoritib bergan.

Pedagog olimlardan A.Munavvarov, O.Musurmonova, M.Inomova, R.Mavlonova, M.Quronov, M.Maxmudova, M.Abdullayeva, O.To'rayeva, D.Xoliqov, F.Xidirova, A.Muxsiyeva va boshqalar oilada farzand tarbiyasi, oila ma'naviyati, oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash, o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ma'naviy-ijtimoiy asoslari, oilada farzand tarbiyasida milliy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, balog'at yoshidagi yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik jihatlarini ilmiy asosda yoritib berishgan. Psixolog olimlardan, G'.Shoumarov, V.Karimova, B.Qodirov, E.G'oziyev, N.Sog'inov, F.Akramova va boshqalar oila, o'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik jihatlarini o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida,

monografiyalarida, o'quv qo'llanmalari va uslubiy tavsiyalarida hamda ilmiy maqolalarida muayyan ravishda yoritib berishgan.

Ammo o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash va uni takomillashtirishni hayotning o'zi taqazo qilmoqda. Shu bois, magistrlik dissertatsiyamiz mavzusini **“O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari”** tarzida tanladik.

Tadqiqotning maqsadi: O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashni takomillashtirishga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

- o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash pedagogik muammo sifatida o'rganish;
- o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning o'rganilganlik darajasi aniqlash;
- o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning hozirgi holati va imkoniyatlari tahlil qilish;
- dars jarayonida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni va mohiyatini yoritish;
- o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda tarbiyaviy tadbirlarning imkoniyatlari belgilab berish;
- o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy urf-odat va an'analardan foydalanish yo'llari o'rganilsa pedagogika kolleji o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlash samarali bo'ladi.

Tadqiqot ob'ekti: Samarqand 1-son pedagogika kolleji o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Pedagogika kolleji o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni, shakli, metodlari va vositalari.

Tadqiqotning ilmiy farazi: Agarda:

- o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash pedagogik muammo sifatida o'rganilsa;
- o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning o'rganilganlik darajasi aniqlansa;

- o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning hozirgi holati va imkoniyatlari tahlil qilinsa;
- dars jarayonida o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni va mohiyati yoritilsa;
- o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda tarbiyaviy tadbirlarning imkoniyatlari belgilab berilsa;
- o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy urf odat va an‘analardan foydalanish yo‘llari o‘rganilsa pedagogika kolleji o‘quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlash samarali bo‘ladi;

Tadqiqotning metodologik asosi: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti , I.A.Karimov asarlari, ma’ruzalari, «Oila kodeksi»,»Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Markaziy Osiyo Qomusiy olimlarining o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari, mavzuga oid pedagogik-psixologik manbalar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash pedagogik muammo sifatida o‘rganilganligi;
- o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning o‘rganilganlik darajasi aniqlanganligi;
- o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning hozirgi holati va imkoniyatlari tahlil etilganligi;
- dars jarayonida o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni va mohiyati asoslanganligi;
- o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda tarbiyaviy tadbirlarning imkoniyatlari belgilanganligi;
- o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy urf odat va an‘analardan foydalanish yo‘llari o‘rganilganligida o‘z ifodasini topgan;

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati: Oila psixologiyasi kursi o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashga oid nazariy qarashlar hamda yondashuvlar boyitildi. Tadqiqot natijalaridan pedagogika kolleji o‘quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashda o‘qituvchilar, mahallada ota-onalar, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish insitutlarini o‘qituvchilari, oila pedagogikasi va psixologiyasi sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin. Shuningdek, o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq metodik qo‘llanma, uslubiy tavsiya va ma‘ruzalar matnlaridan tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiiq etilganligi va ma‘qullanganligi: Tadqiqot ishi natijalari samarqand 1-son pedagogika kolleji o‘quvchilari faoliyatida; kollej pedagogika va psixologiya fani o‘qituvchilari va guruh rahbarlarining ish faolitada, kollejning ma‘naviy-ma‘rifiy direktor o‘rinbosarlari faoliyatida qo‘llanilmoqda.

Tadqiqot natijalarining ommalashganlik darajasi: SamDU talaba va magistrklarining an‘anaviy, ilmiy-nazariy konferensiyalarida o‘qilgan ma‘ruzalar, (2015-2017 yillar); Samarqand viloyati xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish insitutida 2017-yil 29-aprelda “Ijtimoiy fanlarni o‘qitishning dolzarb masalalari: muammolar, yechimlar va istiqboldagi rejalar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plamida chop etilgan “O‘smir-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy urf-odatlarimizdan foydalanish” mavzusidagi ilmiy maqolada va Navoiy viloyat xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida bo‘lib o‘tgan “Alisher Navoiy-O‘zbek milliy adabiyotining buyuk nomoyondasi, mutafakkir olim” mavzusidagi mintaqaviy ilmiy-nazariy konferensiya materiallarida chop etilgan “Alisher Navoiyning ma‘naviy merosidan o‘smir-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda foydalanish hamda mahalliy matbuotda nashr etilgan maqolalarda o‘z aksini topgan. Pedagogika kolleji o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan seminar treninglar va uchrashuvlarda, ota-onalar bilan bo‘lgan suhbatlar tarzida amalga oshirildi.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

- ✚ o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash pedagogik muammo ekanligi;
- ✚ o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning o‘rganilganlik darajasi;
- ✚ o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning hozirgi holati va imkoniyatlari ;
- ✚ dars jarayonida o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni;
- ✚ o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda tarbiyaviy tadbirlarning imkoniyatlari ;
- ✚ o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy urf odat va an‘analardan foydalanish yo‘llari.

Tadqiqot bosqichlari: Tadqiqot uchun quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

Birinchi bosqich: (2015- yil oktabr-2016-yil mart)da tadqiqotning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, obekti, predmeti, metodlari, ilmiy farazi, metodologik asosi, bir so‘z bilan aytganda ilmiy apparati aniqlandi. Tadqiqot rejasi tuzildi, tajriba-sinov maydonchasi aniqlab olindi. Muammoning nazariy va metodik jihatlari o‘rganildi.

Ikkinchi bosqich: (2016 yil aprel-2016 yil dekabr)da tadqiqotning maqsad va vazifalari bo‘yicha o‘rganilgan muammolar yuzasidan 1-son Samarqand pedagogika kolleji o‘quvchilari va o‘qituvchilari bilan test, anketa, so‘rovnomalar o‘tkazildi, suhbatlar uyushtirildi, intervyular olindi, dars va o‘quv tarbiyaviy jarayon kuzatildi. Tadqiqot ishi yuzasidan ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi.

Uchinchi bosqich: (2017 yil yanvar-maygacha) pedagogika kolleji o‘quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashga oid pedagogik shart-sharoitlar ishlab chiqiladi va asoslanadi. Tadqiqot natijalari umumlashtiriladi, tahlil qilinadi, tegishli xulosalar chiqariladi va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

I BOB.O‘SMIRLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1.O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash, pedagogik muammo sifatida.

2017-yil 7-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasi muvofaqiyati har birimizning uni qanday tushunishimizga, o‘z shaxsiy hayotiy harakatlar strategiyamiz deb qabul qilib, har kuni ish joyimizda uni dil, til, qo‘l bilan qo‘llab-quvvatlashimizga bog‘liq. Har birimiz o‘zimizning farzandlik burchimizni Vatanga muhabbatimizni ish bilan ko‘rsatishga yangi imkoniyatlar yaratildi. “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari” yilining dasturidagi 320 bandning har biridan inson manfaatlari uqtirib turadi.

Dasturning “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” bo‘limida yoshlar uchun qilinadigan ko‘p qirrali ishlar tizimini ko‘ramiz.

-yoshlarning bandligi va real daromadlarni izchil oshirish,ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish,yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish,oilada farzand tarbiyasi borasida ma’suliyatni oshirish,yoshlar va voyaga etmaganlarni manfaatlarni ta‘minlash uchun yetuk va mas’ul mutaxasislarning sayyor qabullrini tashkil qilib, zarur yordamlar ko‘rsatish.

-o‘quvchi-yoshlarni mafkuraviy immunitetini mustaxkamlash yoshlarning intellektual va ma’naviy ehtiyojlarini yanada ko‘proq qondirish, yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, ularning ma’naviyati va madaniyatini yuksaltirish.

-multimediya maxsulotlarni yaratish va targ‘ib qilish, mobil internet foydalanuvchilariga mo‘ljallangan, yoshlarni axloqiy tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini va ijtimoiy faolligini yanada oshirishga xizmat qiladigan milliy o‘yinlarni tashkil etish;

-ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, farzand tarbiyasi borasidagi burch va ma'suliyatni oshirish, mustahkam mafkuraviy immunitetga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, notinch oilalar farzanlari, uyushmagan yoshlar ish bilan band bo'lmagan "Ommaviy madaniyat" ta'siriga tushib qolgan yigit-qizlarning xatti-harakatlarini nazoratga olishda ota-onalarning ma'suliyatini oshirish, kashandalik, alkogolli ichimliklar istemol qilish va boshqa illatlar profilaktikasiga oid tadbirlarni tashkil qilish;

Davlat dasturida yoshlar masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Dasturning "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" deb nomlangan bandida "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlanagan, mustaqil fikrlaydigan, vataniga sodiq yoshlarni tarbiyalash demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish belgilangan".

Ushbu vazifada yoshlar tarbiyasiga yettita talab, yani pedagogik ishning 7 aniq mezoni mujassam:

1. Jismoniy sog'lom;
- 2) ruhan va aqlan rivojlangan;
- 3) mustaqil fikrlaydigan;
- 4) vatanga sodiq;
- 5) qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash;
- 6) demokratik islohotlarni chuqurlashtirish;
- 7) yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish, aynan mana shu xislat-u fazilatlar harakat strategiyasining "inson omilini kuchaytiradi".

Insonning dunyoda bir-biriga beradigan eng qimmatbaho sovg'asi bu-mehr va qadr. Bu ikki tushuncha bizni mudom yashashga, intilishga, izlanishga chorlaydi. Har bir xalq, millat, eng asosiysi, har bir inson uchun birdek ahamiyatli bo'lgan bu tushunchalar muqaddas qo'rg'on atalmish oilada qalbimizga singadi, vujudimizda ildiz otadi. Ko'nglimizdagi pokiza orzular ham undagi iliq harorat, mehrdan quvvat oladi. Chunki ilk so'zimizni oilada aytamiz, ilk sabog'imizni oiladan olamiz, ilk tanbehimizni oiladan eshitamiz. U bizga oqu qorani tanituvchi, mustaqil shaxs qilib tarbiyalovchi, jami yomonliklardan asraguvchi bir qo'rg'on. Shunday qo'rg'onki, ostonasi mehr, martabasi oqibat, mukofoti baxtdan sado

beradi .Tariximizga nazar tashlasak, azaldan yurtimizda oila muqaddas sanalib kelinganiga amin bo‘lamiz. Sharqona tarbiya, ming yillik qadriyatlar, milliy an‘ana va urf-odatlar zahirida o‘zbek oilasining ijtimoiy, ma‘naviy, madaniy qadri va ahamiyati yaqqol namoyon bo‘ladi. Eng muhimi, bugungi globallashuv davrida ham u biz uchun o‘zining tarixiy ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, balki uning tarbiyaviy-ma‘naviy qadr-qimmatini toboro yuksalib bormoqda.

Zardo‘shiylikning muqaddas kitobi bo‘lgan “Avesto” islomgacha bo‘lgan sharq xalqlari oilada sog‘lom avlod tarbiyasining usul va vositalari, huquqiy munosabatlar haqida ma‘lumot beradi. “15 yosh bola uchun balog‘at yosh hisoblanadi, unga zardo‘shiylikning qoidalari o‘rgatiladi. Bu yoshda yigit yoki qiz bola turmush qurishi mumkin bo‘lgan. Turmushga chiqayotgan qiz bolaning baquvvat, sog‘lom, go‘zal bo‘lishi, bo‘lajak farzandning sog‘lom tug‘ilishi oila mustahkamligi uchun asos hisoblangan. Ayol kishining ma‘naviy pokligi, oilada saranjom-sarishtaligi, tozaligi uning axloqiy ma‘naviy yetukligining oliy bosqichi hisoblanadi”⁴.

Pedagogika fanlari doktori M.Maxmudova o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalarini ilmiy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilgan va bu boradagi muammolarni yechimlarini ko‘rsata olgan. Jumladan olimaning “Ta‘lim jarayonida yoshlarni ma‘naviy hayotga tayyorlash metodlari” nomli maqolasida jumladan, o‘smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash metodlarini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya etiladi: tanlangan metodlarning ta‘lim vazifalariga, o‘quvchilarning tarbiyasi va rivojlanishiga, mazkur mavzu mazmuniga mosligi; talabalarning tayyorgarlik darajasiga ,yosh xususiyatlariga ta‘lim sharoitlariga, imkoniyatlariga va boshqalarga mosligini hisobga olish holatlarni ta‘kidlab o‘tgan.⁵

⁴ O.Musurmonova, A.Qirg‘izboev, D.Sharipova,O.Jamoliddinova, S.Yo‘ldoshova, Ma‘naviy barkamol insonni shakllantirish-jamiyat taraqqiyotining asosi.-T:”Fan va texnologiya”2012,41-42b.

⁵ Maxmudova M.Ta‘lim jarayonida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash mavzusida maqola. Xalq ta‘limi ilmiy-metodik jurnal.5-son 2003 y.41-44b.

Tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganganimizda ularning bu sohadagi, yani o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga ilmiy yondoshganligini, bu borada turli ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilganligini ko'rishimiz mumkin. Oilashunos olimlarning bir qator risolalarida o'smir yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlashda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi, bunda oila, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligini ta'minlashni nazarda tutganlar. Chunki farzandlar tarbiyasida oilaning o'rnini kattadir. Biz eng avvalo oiladan bizga kerakli tarbiyani olamiz. Bunda oilada ota-onalar va oilaning boshqa katta a'zolari bobo, buvi va boshqalarning roli o'rinlidir. Shu boisdan ham oila sog'lom avlodni voyaga yetkazadigan eng muqaddas makondir. Oilaning har jihatdan mustahkamligi oilaning barpo etilishiga oila a'zolarining o'zaro munosabatlariga bog'liqdir.

Pedagogika fanlari doktori, professor O.Musurmonova o'zining bir qator ilmiy tadqiqot ishlarida jumladan, Oila ma'naviyati-milliy g'urur o'quv qo'llanmasida "Oilada farzandning ota oldidagi burchi ham nihoyatda muhimdir. Uni oilaning ustuni, kundalik turmush sharoitining ta'minotchisi, g'amxo'r murabbiy sifatida hurmat qilish, rozi etish, duosini olish farzandning burchidir. O'g'il bola, ota-qiz bola esa ona yumushlarini yengillashtirishda ko'makdosh bo'lmog'i zarur. Bog'bon umid bilan nihol ekkani kabi, ota-ona ham ezgu umid bilan farzandni dunyoga keltiradi, ardoqlab o'stiradi. Daraxtning shirin-shakar mevalaridan bahramand bo'lishni orzu qilgan bog'bondek, ota-ona ham o'z farzandini aqlli, mehnatsevar, bilimli jamiyatimiz taraqqiyoti uchun halol hizmat qiluvchi ma'nan va ismonan barkamol qilib etishtirish uchun bor kuch va imkoniyatlarini sarf etadi. Hech bir ota-ona farzandiga yomonlik ravo ko'rmaydi. Chunki xalqimiz aytganidek "Farzand yurakning yog'idan yaratiladi".⁶

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov o'zining "Bolam baxtli bo'lsin desangiz..." risolasida o'smirlik davrini o'tish davri, "pubertal yoki

⁶ Musurmonova O. "Oila ma'naviyati- milliy g'urur". O'qituvchi", T.:1999y. 66 b.

pubertat yosh”, “jinsiy yetilish davri”, “o‘tish davri”, ”qiyin davr” kabi iboralar bilan atalishi, mazkur tushunchalarning har biri o‘z xususiyatiga egaligi va o‘smir shaxsini u yoki bu jihatini aks ettirishi haqida to‘xtalib o‘tgan. Shuningdek, o‘smirlar turli guruhlar ta’sirida yashaydi. O‘smirlarga turli g‘oyalar kuchli ta’sir qiladi. Oila, maktab, ko‘chaga xos talablar, ta’sirlar hamma vaqt ham bir-biriga mos kelavermaydi. Ba’zida o‘smirlar ko‘chadagi guruhlardan o‘zlariga “ko‘mir”, ideallni ko‘radilar. Natijada o‘smirlar norasmiy guruhlarda milliy qadriyatlarimizga yot begona qadriyatlarga duch keladilar. O‘zlarining mustaqil tanlagan xulq-atvorlarini ana shu qadriyatlar asosida nomoyon qiladilar. O‘z muammolarini o‘qituvchilari, ota-onalari bilan emas, o‘sha guruhdagi tanishlari bilan muhokama qilishi ma’naviy izolyatsiyasida qolish xavfini paydo qiladi. Milliy tarbiya nuqtai-nazaridan qaralganda o‘smirlik yoshi (11-14 yoshlar) milliy ongning, tushunchalarning, e’tiqodning shakllanishi, ijtimoiy munosabatlarni baholash tizimini qo‘llay boshlashi bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari, o‘smirlik davri yana shunisi bilan xarakterlanadi, jamiyat uchun foydali ishning motivlari o‘smirlarning ijtimoiy-psixologik ehtiyojlariga mos keladi.⁷

Pedagogika fanlari nomzodi F.Xidirova o‘zining Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari nomzodlik dissertatsiyasi⁸da, oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash murakkab pedagogik jarayon sanalib, mazkur jarayonning samarali tashkil etilishi bu boradagi muayyan kamchilik va muammolarning bartaraf etilishi bilan belgilanadi. Ayni vaqtda esa oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasida bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

1. Ota-onalarning oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyati xususida to‘la ma’lumotga ega emasliklari.

Milliy etnopsixologik xususiyat (Ota-onalarning o‘z farzandlari bilan ma’lum masalarda ochiq oydin muloqotda bo‘la olmasliklari) oila sharoitida ota-

⁷ M.Quronov. Bolam baxtli bo‘lsin desangiz.”Ma’naviyat”T.:2013,171 -172 b.

⁸ Xidirova F.Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari, nomzodlik dissertatsiyasi.T.:2007.20-21b.

onalar yoshlar, chunonchi qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining mohiyatini to'la tushunmasliklari sabab bo'lmoqda.

2. Ota-onalar tomonidan yoshlar,shu jumladan qizlarni oilada hayotga mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish imkonini beruvchi manbalarning yetarli darajada mavjud emasligiga to'xtalib o'tgan.

Tadqiqotchi D.Abdullayeva o'zining "Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik xususiyatlari" nomli maqolasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, xususan ularning oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasi, oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini aniqlashga e'tibor qaratgan. Bunda yoshlarni jismonan, psixologik va ma'naviy yetuklik nuqtai-nazaridan o'rgangan.⁹

Shuningdek psixolog olim N.A.Sog'inov o'zining bir qator ilmiy ishlari va risolalarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga hamda oilada farzandlar tarbiyasida va shaxs shakllanishida ota-onalarning o'rni muhimligini yoritib berishga harakat qilgan. Shuningdek tadqiqotchi oilada o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida ota-onalar uchun va o'qituvchilar uchun bir qancha tavsilarni ishlab chiqqan.

Ammo olib borilgan tadqiqot ishlarida pedagogika kollejlarda tahsil olayotgan o'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari yetarlicha o'rganilmagan. O'smir yoshdagi yigit va qizlarning ruhiy holati, ta'lim-tarbiyasi ma'naviy-axloqiy darajalari, o'smir yoshlarni oilada tarbiyalashda oiladagi muhit, ota-ona, qarindosh-urug'larning munosabatlari, pedagogika kollejida o'qitiladigan predmetlarning o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi holati va imkoniyatlari chuqur izlanishlar olib borishni toqozo etadi. O'smir yoshdagi o'quvchilarni oilaga tayyorlashda milliy urf-odatlarimiz va an'analарimiz, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning bu boradagi imkoniyatlari, oila, ta'lim muassasalari va mahalla hamkorligining o'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi hamkorlik

⁹ Abdullayeva D.U. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik xususiyatlari, Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari,"Qatortol-kamolot" T.:1999,93-96b.

aloqalari yetarli darajada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni talab qiladi. Shu bois, yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib-chiqib, o'smir-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi pedagogik jihatdan muammo sifatida chuqur o'rganilmog'i va undan tegishli xulosalar chiqarib olinmog'i lozim.

1.2.O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning o'rganilganlik darajasi

O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan faoliyatning muayyan natijalariga erishuvini ta'minlash bu boradagi mavjud holatni o'rganish, yutuqlarni boyitish chora-tadbirlarni ko'rish, kamchiliklarni bartaraf etish ishiga o'z vaqtida ahamiyatni qaratish, joriy hamda istiqbol rejalarini belgilashga bevosita bog'liqdir.

O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi qimmatli fikrlar eng qadimiy manba "Avesto"da ham ma'lumotlar berilgan. Xususan, "Avesto"ning eng qadimgi qismi sanalagan "Yasna"larda oilada farzand tarbiyasi, ayniqsa o'smir yoshdagi farzandlarni to'g'ri tarbiyalash, to'g'ri ovqatlanishi borsida ma'lumotlar yoshi qoldirilgan. Zardo'shtilik ta'limotida 15 yosh balog'ot yosh hisoblangan. Balog'otga yetgan o'smirga axloq-odob, zardo'shtiylikning yo'riqlari o'rgatilgan. Endi ularning mustaqil hayoti uchun zarur bilimlar va qoidalar o'rgatilgan. Demak, "Avesto"da oila va farzand tarbiyasi markaziy o'rinda turgan. "Avesto"ning tadqiqotchilaridan bo'lgan olim H.Homidov ham; "Erkak zurriyod qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsa-yu, ammo uylanmasa unga tamg'a bosishar yoki beliga zanjir bog'lab yurishga majbur qilishardi". "Avesto"da qarindoshlarning o'zaro oila qurishi man qilingan. Qavm va urug' qonini toza saqlash uchun shunday qilingan.¹⁰

Yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik jihatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada har tomonlama komol topgan shaxsni tarbiyalash oilaviy tarbiyaning muhim tomonlaridan biridir.Buning samarali yo'llari, mazmuni shakl va metodlari, vositalarini izlab topish va yangicha yondashish muhim

¹⁰ Homidov H. "Shohnoma"ning shuhrati.-T.:O'zbekiston,1991,93-94.

pedagogik muammodir. ”Oilaviy tarbiya deganda ota-onalarning o‘z hayotlari, turmush tarzlari asosida bola shaxsida dunyoqarash asoslari, siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida muntazam, izchil g‘oyaviy va ma’naviy ta’sir ko‘rsatish yo‘llari tushuniladi”. Shuningdek o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-onalar va o‘qituvchilar o‘z tajribalaridan kelib chiqib, ijodiy yondashadilar. Shu bois, ham ota-onalarda, maktab, kollej o‘qituvchilarida pedagogik, psixologik bilimlar bo‘lishi lozim. Aynan o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-onalar, ijtimoiy, psixologik, fiziologik bilimlarni egallashi bilan birga ushbu bilimlarni qo‘llashda qanday metod va vositalardan foydalanishning yo‘l-yo‘riqlarini ham bilishlari zarurdir.¹¹

Islom ta’limotida yosh avlodning jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lib ulg‘ayishiga jiddiy ahamiyat berilgan. Bu haqda Payg‘ambarimiz (s.a.v): “Farzandlarimizga suzish va kamon otishni, qizlarga ip yigirishni o‘rgatinglar”, deganlar (Bayhaqiy rivoyati). Mamlakatimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etadi. Ularning ulg‘ayib, komil inson bo‘lishlari uchun davlatimiz barcha zarur moddiy va ma’naviy sharoitlarni muhayyo qildi, sport inshootlari, dam olish va istirohat maskanlarini barpo etib, yoshlar ixtiyoriga berib qo‘ydi. Ma’lumki, mamlakatimizning barcha hududlarida bolalarning, ayniqsa, o‘smirlarning so‘g‘lom o‘sib-ulg‘ayishi, ilm olishi, kasb-hunar egallashi uchun katta imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda. Oldin ham ta’kidlaganimizdek, bu borada jamoat tashkilotlarining ham o‘rni kattadir. ”Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, “Sog‘lom avlod uchun”, “Bolalar”, ”Mehr nuri”, ”O‘zbekiston sportini rivojlantirish” va “Maktab ta’limi” kabi jamg‘armalar olohida taxsinga loyiq faoliyat olib borishayapti. Bunday ishlarning barchasi vatanimizda kamol topayotgan o‘smir yoshlarning yetuk shaxs bo‘lib yetishlarida o‘z o‘rniga egadir.¹²

Muqaddas dinimizda ham o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga juda ko‘plab ma’lumotlar borligini ko‘rishimiz mumkin. Islom dinida oila va oilaga

¹¹ Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi. T.: O‘qituvchi, 1994, 112b.

¹² Alimov U. Oilada farzand tarbiyasi, “Movarounnahr”, T.: 2014, 50-51b.

tayyorlash borasida ko‘plab oyatlar keltirilgan. Shuningdek, Islom tamoyillari asosida o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosi barcha ta’limiy-axloqiy asarlarning muammolaridan bo‘lgan. Masalan, Yusuf Hos Hojibning mashhur “Qutadg‘u bilig”¹³ asarining “O‘g‘il-qiz tug‘ulsa” bo‘limida farzandlar tarbiyasiga alohida e’tibor berilgan:

O‘g‘il-qiz tug‘ulsa, yaxshi bilki bas,
Uyda tarbiya qil boshqa erdamas
Ustozning yaxshisin tanla albatta,
O‘g‘il-qiz pok o‘sar yomondan chetta.
O‘g‘il-qizga o‘rgat bilim ham odob,
Baxtga yor bo‘laru,bo‘l magay xarob.
O‘g‘ilga xotin ol qizni erga ber,
Qayg‘u, g‘amsiz yana , ayo qutlu er.
O‘g‘il topsin-sanad-hunarda kamol,
Bu hunar bilan u tera berar mol.
O‘g‘ilni tergab tur, bo‘sh qo‘yma zinhor,
Benaf, bebosh bo‘lar, yugurar bekor.

Yuqoridagi o‘gitdan ko‘rinib turibdiki, yosh-avlodni oilaviy hayotga tayyorlashda unga bilim, odob bilan birga unga hunar ham o‘rgatish zarur va muhim deyiladi. Shuningdek, adib, o‘smirlarni oila qurishdan oldin va oilaviy hayotga tayyorlashda ularning bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanish, ularni bo‘sh qo‘ymaslik kerakligi, xoh qiz bo‘lsin, xoh o‘g‘il birdek ularni kasbga, hunarga yo‘naltirish lozimligi va bu ularning ertangi hayotlarida o‘zlariga naf olib kelishlariga alohida to‘xtalib o‘tgan.

Oila muammolari, o‘smir yoshdagi farzandlarni oilaviy hayotga tayyorlash buyuk davlat arbobi, temuriylar saltanatining yetakchisi Amir Temurning ham diqqat e’tiborida turgan.

¹³ Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (saodatga yo‘llovchi bilim). Hozirgi o‘zbek tilida bayon qiluvchi va so‘z boshi muallifi B. To‘xliyev, -T.: Yulduzcha, 1990. 192b.

U haqda yozilgan ko'pgina asarlarda, sohibqironning ibratli o'gitlarida vatanparvarlik, mehr-muruvvat, mardlik, jasurlik, adolatparvarlik kabi xislatlar bilan bir qatorda oila, nasl-nasab pokligi singari masalalar ham o'z ifodasini topgan.

Shu jumladan, uning quyidagi o'giti turmush qurish ostonasida turgan yigit-qizlarga taluqlidir: "O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'liq-salomatligini kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabi tozaligi, shu bilan birga barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga to'y-tomosha berib kelin tushurdim"¹⁴.

Ushbu fikrlar bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Oila qurish arafasida turgan o'smir yoshdagi yigit-qizlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, Amir Temurning talablarini qanchalik hayotiyligini ko'rsatmoqda.

Shu o'rinda, aytib o'tishimiz joizki o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda o'zbek xalqi o'zining ko'p yillik tajribasiga ega. Bunday muammolar yechimini topishda tadqiqotchi olimlar, pedagoglar, psixologlar, sotsiologlar, faylasuflarning va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'rganilib kelinayotganini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotchi olimlardan F.Xidirova o'zining bir qator ilmiy izlanishlarida va risolalarida, xalqimizning oilada o'smirlar, ayniqsa, o'smir yoshdagi qizlar tarbiyasini tashkil etish borasida asriy tajribaga egaligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tgan. Mazkur tajribaning mazmuni sharqona odob, axloq, hayo, ibo, pokizalik hissi bilan yo'g'rilgan pand-nasihatlar, mutafakkirlarning qarashlari, ilmiy-nazariy va amaliy g'oyalardan tashkil topgan. Uzoq yillar davomida oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ana shu tajribaga tayanib ish ko'rilayotganligini ta'kidlab o'tgan.

¹⁴ Amir Temur o'gitlari (to'plam). Tuzuvchilar: Ahmedov B. Aminov A., T.: Navro'z, 1992. 64b.

O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy tarbiya nuqtai-nazaridan pedagogika fanlari doktori M.Quronovning “Bolam baxtli bo‘lsin desangiz...” nomli risolasida juda ko‘plab muhim ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. Muallif risolada, ”Milliy tarbiya nuqtai-nazaridan qaralganda o‘smirlik yoshi (11-14 yoshlar) milliy ongning, tushunchalarning, e’tiqodning shakllanishi, ijtimoiy munosabatlarni baholash tizimini qo‘llay boshlashi bilan muhimdir. Millatlararo muloqot madaniyati uchun muhim bo‘lgan begona kishilar ma’naviy dunyosini his qilish, ularning qayg‘usiga hamdard, quvonchidan shodlana olish (empatiya) qobiliyati ham aynan shu davrda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘smirlik davri yana shunisi bilan xarakterlanadiki, jamiyat uchun foydali ishning motivlari o‘smirlarning ijtimoiy psixologik ehtiyojlariga mos keladi.¹⁵ Bu esa o‘z navbatida o‘smirlarni O‘zbekiston vatanparvarligi, milliy istiqloq mafkurasi ruhi bilan sug‘ogilgan ijtimoiy-foydali faoliyatga jalb qilish imkoniyatini beradi” deb aytib o‘tgan.

Tadqiqotchi olimlardan A.Muxsiyevaning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘smir yoshdagi yigit-qizlar tarbiyasining quyidagi tomonlariga alohida e’tibor qaratilgan, tarbiyaning milliy xususiyati, unda odob-axloq me’yorlari qat’iy belgilab qo‘yilganligi va mazkur me’yorlarning ota-onalar va o‘smir yoshdagi farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarda namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanishini, shuningdek, o‘smir yoshdagi qiz bolaning tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan xatti-harakatlar oila a’zolari tomonidan qilinmaslik kabi tarbiyaviy fikrlarga to‘xtalib o‘tgan. Mamlakatimizda ko‘pgina sohalarda olib borilayotgan islohotlar singari, ta’lim sohasida yosh-avlodni oilaviy hayotga tayyorlashda ta’lim muassasalarining ta’sirini kuchaytirishga, ayniqsa o‘smir yoshlar tahsil olayotgan kollejlarda, jumladan pedagogika kollejlari dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida bir qancha vazifalar bajarilmoqda. Pedagog va psixolog olimlar V.Karimova, J.Alimov, R.D.Fayzulin hamda D.Salimovalarning ilmiy tadqiqot ishlarining bsh g‘oyasi yoshlarda o‘zbek oilasi haqida ijtimoiy

¹⁵ .Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin desangiz...,T.: “Ma’naviyat”, 2013 173-174 b.

tasavvurlarni shakllantirish, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rni, o'smir yoshlarni sinfdan hamda maktabdan tashqari sharoitlarda oilaviy hayotga tayyorlash, qishloq maktablarida yuqori sinf o'quvchi qizlarini oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari bo'lib, ular atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek oilaning ijtimoiy mavqeyi, uning jamiyatda tutgan o'rni, hamda bolalar tarbiyasida ota-onalarning o'rni xususidagi masalalarga ham to'xtalib o'tilgan.

Tadqiqot muammosiga yaqin mavzularda olib borilgan ilmiy tadqiqot izlanishlari hamda yaratilgan adabiyotlarning mazmunini o'rganish va tahlil jarayonida shunga amin bo'ldiki, o'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdek murakkab bir jarayonda oilaning o'ziga xos muhim o'rni borligini, oilada o'smir qizlarni mustaqil oilaga tayyorlashga yo'naltirilgan faoliyatning mazmuni hamda ilmiy asoslarini ishlab chiqish, oila va jamoatchilik o'rtasida bu boradagi hamkorlikni mustahkamlash, o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda alohida ahamiyatga ega bo'lgan shakl va metodlarni shuningdek vositalarini ishlab chiqish, oilada, pedagogika kollejlarda o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda metodik tavsiyalar ishlab chiqish kabi masalalarga e'tibor qilinmaganligi ko'zga tashlanadi.

Tadqiqotchi N.Lutfullayeva o'zining ilmiy izlanishlari va bir qator risolalarida farzandlar tarbiyasida oilaning ahamiyatiga ko'p bora murojaat qilgan. Jumladan, "Oilaning tarbiyaviy ahamiyati" nomli ilmiy maqolasida ushbu ma'lumotlarni keltirib o'tgan. "Tarbiya borasidagi eng zaxmatli yuk oila zimmasiga bo'ladi. Oiladagi an'anaviy ta'lim-tarbiya namunalari farzandlarga amaliy tarzda o'rgatib, oilaviy munosabatlar madaniyatini yuksaltirish orqali oilada sog'lom ruhiy muhitni yaratish bilan izohlanadi. Demak, oilaning yosh-avlod kamolotidagi ta'siri katta. Oilaning muhim vazifalaridan biri, har tomonlama sog'lom farzandni voyaga yetkazishdir. Oilada oila a'zolari qanchalik bir-birlari bilan samimiy tuyg'ular va munosabatlar orqali bog'lanar ekan, shunchalik oila

a'zolari o'rtasidagi samimiy sog'lom ruhiy munosabat oilaviy baxt, farovon totli turmush yaratishda asosiy omillardan biri bo'lib qolaveradi"¹⁶.

Shuningdek oilada farzandlar tarbiyasi bilan bog'liq bir qator muammolarga pedagogika fanlari doktori O.Musurmonova o'zining ilmiy risolalarida to'xtalib, "Oila yoshlarni ma'naviy va jismonan barkamol qilib tarbiyalashdagi muhim maskandir. Oilada hukum suradigan sog'lom ma'naviy muhit va sog'lom turmush tarzi yoshlar o'rtasida paydo bo'ladigan ichuvchilik, kashandalik, giyohvandlik, jinoyatchilik, turli jinoiy guruhlar va diniy ekstrimistlarning ta'siriga tushib qolishdan saqlaydi" deb ta'kidlab o'tgan. Shuningdek olim, oilaviy tarbiyada o'smir yoshdagi farzandlarning buch va majburiyatlari, aynan oilada bunday muhim vazifalarni ta'lim-tarbiya orqali farzandlar ongiga singdirishda otionalarning o'rnini juda muhimligi borasida qimmatli fikrlarni aytib o'tgan.¹⁷

So'ngi yillarda yosh mustaqil oilalarni shakllantirish, ularning mustahkamligini ta'minlash, ularda sog'lom psixologik muhitni qaror toptirish, oilaviy ajrimlar sonini kamaytirishga va oldini olishga qaratilgan muammolarni tadqiq qilishga e'tibor kuchaymoqda. Mazkur mavzuda bir qator ilmiy izlanishlar qilinmoqda, ularda asosan, o'smirlarni har tomonlama oilaviy hayotga tayyorlash borasida fikr mulohazalar yuritilgan. Tadqiqot muammosining yechimini topish borasida, muammoning nazariy g'oyalarini asoslashda pedagog olim O.Musurmonova o'zining "Oila ma'naviyati-milliy g'urur" nomli asarida juda ko'p bora to'xtalib o'tgan.

Shuningdek, pedagog olimalardan M.Maxmudova o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida xalq pedagogikasi mazmuni asosida o'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, unda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim masalalar yoritib berilgan. Muallif tomonidan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlari aniqlanganligi tadqiqotning muhim pedagogik qiymatini belgilaydi:

¹⁶ Lutfullayeva N. Oilaning tarbiyaviy ahamiyati, Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnal, 5-son, 45-48b.

¹⁷ Musurmonova O. Oila ma'naviyati milliy g'urur, T.: O'qituvchi" 1999, 22-23b

- 1) Turmush qurayotgan yoshlarning oilalari o'zaro muvofiq bo'lishiga e'tibor berishga yoshlarni odatlantirish;
- 2) Yoshlarni oila a'zolari bilan o'zaro muomala madaniyatini o'rgatish;
- 3) Yoshlarni huquqiy jihatdan oilaga tayyorlash;
- 4) Yoshlarni psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyorlash;
- 5) Yoshlarni oilaviy hayotga fiziologik-gigiyenik jihatdan tayyor bo'lishlarini ta'minlash;
- 6) Yoshlarni farzand tarbiyasidagi pedagogik bilimlar bilan qurollantirish;
- 7) Yoshlarni oilaviy hayotga estetik munosabatta bo'lishga tayyorlash;
- 8) Yoshlarni oila iqtisodini to'g'ri yuritishga o'rgatish;¹⁸

O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularning ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lishlari juda muhim sanaladi. Bunday sifatlarni o'smir yoshlarda shakllanishi uchun oilada ota onalar tarbiyasi muhim sanaladi. Oilada ota-onalari bilan o'sib-ulg'ayayotgan o'smirlar bilan noto'liq oilalarda katta bo'layotgan yoshlarning tarbiyasida farq qiladigan tomonlari ko'p uchraydi. Noto'liq oilalarda qaror topgan psixologik muhitdan to'liq oilalarning psixologik muhiti tubdan farq qiladi. Tabiiyki bunday oilada shakllanayotgan o'smirlarning xususiyatlari oilaga bo'lgan munosabatlari oila haqidagi tasavvurlari turlicha bo'ladi. Tadqiqotchi olim Yu. Shamirova o'zining ilmiy izlanishlarida noto'liq oilalarda o'smirlarni milliy-ma'naiy tarbiyalash maslasining o'rganilganligi, ota-onalarni noto'liq oilalarning o'ziga xos psixologik jihatlarini inobatga olgan holda o'smirlarni oilaviy hayotga har tomonlama tarbiyalash borasidagi qurollantirish imkoniyatini yaratadi. Muallif noto'liq oilalarda rivojlanayotgan o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda nimalarga e'tibor qaratish borsida bir qator fikr mulohazalarni keltirib o'tgan.

¹⁸ Maxmudova M. Xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimi. Ped.fan.dokt.avtoreferati-T.: 2004.40 .(12)

Muallif o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida o‘smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida oilada va ta’lim muassasalarida quyidagi shart-sharoitlarning yaratilganligini keltirib o‘tgan:

- 1) O‘smir yoshdagi yigit-qizlarning kundalik rejimini gigenik talablarga binoan tuzish;
- 2) Ma’lum tartibda va to‘g‘ri ovqatlanish;
- 3) Aqliy va jismoniy mehnatni o‘zaro almashtirib turish;
- 4) Yoshlarni uy-ro‘zg‘orga va jamoat faoliyatiga jalb etish;
- 5) Yigit va qizlarda o‘zaro do‘stona munosabatlarni shakllantirish maqsadida ota-ona va oila a‘zolari bilan muosabatlarning iliq bo‘lishini ta’minlash;
- 6) Begonalar bilan muloqotga kirishish san’ati bilan tanishtirish, yangi sharoitlarga moslashish ko‘nikmalarini tarkib toptirish kabilarni keltirib o‘tgan.

Pedagog olim A.K.Munavvarovning “Oila pedagogikasi”¹⁹ kitobi o‘zbek oilalaridagi tarbiyaning umumiy xususiy tomonlarini o‘zida aks ettirgan. Tadqiqotchi olim A.Munavvarov oilaviy tarbiya xaqida shunday deydi: oilaviy tarbiya deganda ota-onalarning o‘z hayotlari, turmush tarzlari asosida bola shaxsida dunyoqarash asoslari, siyosiy, estetik va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida muntazam izchil g‘oyaviy va ma’naviy ta’sir ko‘rsatish jarayoni tushuniladi.

Akademik Ahmadali Asqarov o‘zining bir qator ilmiy tadqiqot ishlarida jumladan “O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi” managrafiyasida “O‘zbek milliy mentalitetining yana bir muhim jihatlaridan biri-bu jamiyat hayoti, insonlar turmush-tarzi ko‘proq an’ana va urf-odatlar orqali boshqariladi. Masalan, o‘zbekona rasm-rusumlarga qat’iy amal qilgan oilalarda o‘g‘il uylantirish, kelin tanlash paytlarida ota-onalar va qarindosh urug‘lardan alohida e’tiborni talab qilinadi. Avvalombor, bo‘lajak kelin va kuyovni salomatligi, jismoniy nuqsonlardan holi bo‘lishi, quda tomonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, jamoada tutgan o‘rni mavqeyi va obro‘-e’tibori hisobga olinadi. Shuning uchun ham

¹⁹ Oila axloqi va odobi. Tuzuvchilar: X.Uzoqov, E G‘oziyev, L.Oripova-T.: ”O‘qituvchi”1995 200 b.

xalqimiz ”Teng tengi bilan, tezak qopi bilan”deb bekorga aytmagan. Agar kuyov yoki kelin bo‘lmish tomonlarning aqli odobi, husn-jamoli, ularning bir-birlariga ko‘ngil qo‘yish asosida tug‘ilgan sevgi-muhabbat bir o‘lcham bo‘lsa, ularning otalari, qarindosh urug‘lari, avlodning jamoadagi mavqeyi bu haqdagi jamoatchilik fikri ikkinchi, aksariyat hollarda hal etuvchi vazifani o‘taydi. Shu bois jamoatchilik fikrining shaxs turmush-tarzi, taqdirini belgilashdagi ustuvorlik mavqei beqiyosdir”²⁰.

Tadqiqotchi O.Qosimovanning “Qizlar tarbiyasiga doir xorijiy tajriba tahlili”²¹ mavzusidagi ilmiy maqolasida, jahon miqyosida qizlar tarbiyasi masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Mazkur masalada har bir hudud, mintaqa, mamlakatda o‘ziga xos milliy–hududiy tajriba to‘plangan. Turli mamlakatlarning milliy tajribasi o‘sha xalqning asriy an‘analari,urf-odatlari,marosimlari etnik o‘ziga xosliklari bilan chambarchas bog‘liqdir. Umuman olganda xorijiy tajriba tahlili qizlarning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda o‘rganish lozim bo‘lgan ilg‘or g‘oyalar bilan birga, zamonaviy sharoitda hal etilishi lozim bo‘lgan muammolarning mavjudligi bilan tavsiflanishini keltirib o‘tgan.

Tadqiqotchi G.Aripova “Oila fuqorolik jamiyati institutining muhim bo‘g‘ini sifatida o‘smirlarda tolerantlik tafakkurni shakllantirish omili”²² maqolasida “Oilada o‘smir yoshdagi bolalar tolerantligini shakllantirishda ta‘lim va tarbiya jarayonining uzluksizligi, davomiyligi, maqsadli tashkil qilinishi, kompleksligi, oilaviy ta‘limning maktab ta‘limiga integratsiya qilinganligi, oila ichida va oiladan tashqarida tolerantlik muhitining mavjudligi kabi omillarga aloqador tarzda rivojlantirildi. Bu jarayonda tolerantlik fazilatlarini shakllantirish oila tizimi va maktab ta‘limi tizimiga mutanosib tarzda ta‘lim jarayoni xususiyatlari va metodlarini nazarda tutib, ularning bir-birining

²⁰ Asqarov A.O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi.T.:”O‘zbekiston”2015.546-547b.

²¹ Qosimova O. Qizlar tarbiyasiga doir xorijiy tajriba tahlili. Samarqand viloyati xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida 2017-yil 29-aprelda “Ijtimoiy fanlarni o‘qitishning dolzarb asallari: muammolar, yechimlar va istiqboldagi rejalar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.177-178b.

²² Aripova G. Oila fuqorolik jamiyati institutining muhim bo‘g‘ini sifatida o‘smirlarda tolerantlik tafakkurni shakllantirish omili.Sog‘lom avlod –fuqorolik jamiyati poydevori.T.:”Fan va texnologiya” 2013,56-57b.

mazmunini to'ldirishni hisobga olgan holda tashkillashtirishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Mahalla orqali esa bola turli inqirozli vaziyatlar yechimini ko'radi, mahalladagi tadbirlar orqali ilmiy bilimlari rang-barang hayotiy voqealar bilan boyitiladi. Shu nuqtaai nazardan olib qaraganda, oila maktab va mahalla tizimlari o'rtasida tolerantlik mazmunining turli qirralrini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi" aytib o'tgan. O'smir yoshdagi bolalarda tolerantlik tafakkurini shakllantirishda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, yani oila, maktab, nodavlat tashkilotlari hamkorligining ta'minlanishi juda katta ahamiyat kasb etadi.

1.3.O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning hozirgi holati va imkoniyatlari

Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar risolasida oila masalasiga alohida e'tibor qaratilib: oila-mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi. Oiladagi sog'lom muhit-sog'lom mafkurani shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligi, o'zaro hurmat-ahllikni ta'minlash-milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'ladi.²³

Tadqiqotchi Nodir Qosimov o'zining "Globallashuv: oila va farzand tarbiyasi" o'quv qo'llanmasida ta'kidlaganidek, "Pedagogik faoliyatimiz davomida yetuk ma'naviyatli oilalarda tarbiyalangan ijobiy sifatli o'quvchilarga juda ko'p duch kelganmiz. Ularning dil so'zlarini eshitib, o'qituvchiligimizdan, ustozligimizdan faxrlangan, g'ururlangan paytlarimiz ko'p bo'lgan. Va aksincha, ma'naviy qashshoq ,fisqu fasod, ig'vo muhiti hukmron oilalarda tarbiyalangan

²³ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. -T.: "O'zbekiston", 2000.80.

bolalarni ham ko'ryapmiz. Ularda xudbinlik toshyuraklik, kattalarga hurmatsizlik, berahmlilik, ikkiyuzlamachilik, atrofdagilarga e'tiborsizlik, ma'suliyatsizlik, surbetlik, qo'pollik illatlari shakllanadi. Bunday o'quvchilarning ota-onalari bilan muloqot qilib, asabiylashgan, afsuslangan paytlarimiz ham uchrab turadi".²⁴

Mamlakatimizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinganligiga oradan yigirma yil o'tdi. Ta'lim sohasida muayyan yutuqlar qo'lga kiritildi. Boshqacha aytganda mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Kadrlar tayyorlash milliy modeli o'ziga xosligi bilan butun dunyoda tan olindi. Bir qator umummilliy dasturlarning ta'lim tizimiga muvoffaqiyatli joriy etilishi natijasida ta'lim sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Butun jahon Bankining ma'lumotlariga qaraganda mamlakatimiz aholisining savodxonlik darajasi 99,3 % ga etganligi e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ijtimoiy sohada sarf qilinayotgan mablag'ning qarib 50% dan ortig'ini tashkil etadi. Ta'lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan e'tibor yildan-yilga oshib bormoqda. Uzluksiz ta'limning barcha turlariga yuqori talablar qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 23-fevraldagi 77-sonli "Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari tashkil etish va ularning faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori, 1998 yil 13-maydagi 204-sonli "O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsusni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar" to'g'risidagi qaroriga muvofiq hozirgi kunda respublikamizda 1536ta akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, shundan akademik litseylar soni 142 ta, kasb-hunar kollejlari soni 1394 tani tashkil etadi. Akademik litseylarda 107,705 nafar, kasb-hunar kollejlari 1494027 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Buning e'tiborli jihati shundaki, ta'limning o'rta bo'g'ini mamlakatimizda yangi ta'lim tizimi sifatida joriy etilgan bo'lishiga qaramay o'tgan qisqa vaqt ichida sohada istiqbolli islohotlar amalga oshirilmoqda. Akademik litsey va kasb hunar kollejlari moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash uchun davlat byudjetidan 104,65 mlrd

²⁴ Qosimov N.va boshqalar. Globallashuv:oila va farzand tarbiyasi.-T.: "Turon zamin ziyo"2016.7-8b.

soʻm, xorijiy investitsiyalar hisobidan 234,6mln AQSH dollari sarflanib, eng zamonaviy jihozlar xarid qilindi va ular taʼlim jarayonida ishlatilmoqda.

Oila bilan jamiyat doimo uzviy aloqadordir. Ana shu bois mustaqillikka erishganimizdan boshlab, oila farovonligini taʼminlash, uni mustahkamlash aholi salomatligini muhofaza qilish, taʼlim jarayonini milliy lashtirish, milliy qadriyatlarni tiklash masalasi davlatning ustuvor siyosatiga aylandi. Bu haqida Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov "...jamiyatimizning asosi oila moddiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanmoqda. Biz davlatimizning ijtimoiy asoslarini mustahkamlashda, uning barqarorligini taʼminlashda mamlakatimizning ertangi taqdiri bilan bogʻliq boʻlgan jismonan sogʻlom, maʼnaviy jihatdan etuk yosh avlodni tarbiyalashda oilaning muhim oʻrin tutishiga katta ahamiyat bermoqdamiz"-deb taʼkidlagani bejiz emas.²⁵

Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining 2007 yil 18-maydagi PF 878 sonli "Yosh oilalarini moddiy va maʼnaviy qoʻllab-quvvatlashga doir, qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi Farmonining qabul qilinishi ham oilaga berilayotgan eʼtiborning yana bir koʻrinishidir. Yurtboshimiz qayd etganidek "bugungi kunda respublikamizda 950 mingdan ziyod yosh oila mavjud boʻlib, yurtimizda jami oilalarning 16 foizini tashkil qiladi".²⁶

Yosh oilalarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishini asosiy maqsadi oila iqtisodiy barqarorligini taʼminlash asosida oilada avlod tarbiyasini yanada yaxshilash nazarda tutilgan. Oila kishilik jamiyatining poydevoridir. Shunga koʻra jismonan sogʻlom, maʼnan barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli yosh avlodni voyaga yetkazish oiladan boshlanadi. Yosh avlodning maʼnaviy qiyofasi, ularning xatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyatida shakllanadi. Shuni alohida taʼkidlash joizki, oilada yosh avlod oiladagi muhit,

²⁵ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.: Oʻzbekiston, 2000 28-bet.

²⁶ Asosiy maqsadimiz-yurtimizda erkin va obod farovon hayot barpo etish yoʻlini qatbiyat bilan davom ettirishdir. Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 15 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimidagi maʼruzasi. Oʻzbekiston ovozi, 2007, 8-dekabr.

an'anaviy tarbiya bilangina emas, shu bilan birga oila iqtisodi, uning moddiy sharoiti bilan ham bevosita bog'liqdir.

Yosh avlodni bugungi kun imkoniyatlarigagina emas, balki, ertangi kun ehtiyojlariga tayanib tarbiyalamoq zarur. Barkamol insonni voyaga etkazish uchun eng avvalo, oila, mahalla, maktab, butkul jamiyat va davlatning uzviy hamkorligini yuqori pag'onaga ko'tarish lozim. Oila-jamiyat asosi. Zero, har bir insonning, har bir oilani ijtimoiy muhofazalash, oilada qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy va ma'naviy tomondan yetuk qilib tarbiyalash bugungi kunda xalqimiz va jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifalaridan biriga aylangan.

Shuni hisobga olgan holda respublikamizda mahallani tashabbusi bilan "O'z mahallam-o'z uyim", "Ibratli xonadon", "Oila va odob-axloq", "Qaynona va kelin", "Totuvlik-uyning davlati" va boshqa shunga o'xshash ko'rik tanlovlar, suhbatlar o'tkazish odatga aylanyapti. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha bunyodkorlik faoliyati yoshlar kamoloti, baxt-saodati, yorqin istiqbolini ta'minlash, ularning madaniyatli, bilimli va jismonan yetuk qilib tarbiyalashga qaratilganligi amaliyotda nomoyon bo'lmoqda. Yoshlarni muhim hayotiy manfaatlarini kasbiy va ruhiy o'sishini moddiy va ma'naviy jihatdan ta'minlash, ularning dam olishi va sport bilan shug'ullanishini tashkil etish, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi", "Sog'lom avlod uchun", "Mahalla", "Bolalar sportini rivojlantirish", "Kelajak ovozi" va boshqa jamg'arma tashkilotlari tomonidan amalga oirilmoqda. Mustaqil hayotga qadam qo'ygan va qo'yishi lozim bo'lgan yoshlarimiz o'z istedodlarining yangi qirralarini kashf etishlari uchun ularga yoshlar tashkilotlari har tomonlama ko'makdosh bo'lmoqda.

Oila shaxs tarbiyasining asosiy ilk bo'g'ini hisoblanadi. Oilalardagi tartib-intizom, ahillik, inoqlik, ma'naviy-axloqiy munosabatlar mustahkam va sog'lom bo'lsa, ota-onaning ibratli odobi, xulqi namunali sog'lom muhitni vujudga keltirib, ta'limning muhim poydevori bo'ladi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Hamмамiz yaxshi bilamiz, 15 dan to 18 yoshgacha bo‘lgan davr-inson umrida eng nozik, eng murakab davrdir. Shu yoshda inson ongi xulqi va axloqi, ma’naviy qiyofasi tugal shakllanadi. Hali suyagi qotmagan farzandlarimizni o‘z holiga tashlab qo‘ysak, tarbiyasi, ilmi va ma’naviyati bilan shug‘ullanmasak, kelajakda ularning komil insonlar bo‘lib yetishmog‘iga kim kafolat bera oladi? Biz jamiyatimiz, davlatimiz kelajagini kimlarning qo‘liga topshiramiz”²⁷. Binobarin, jamiyatda yoshlar tarbiyasi, ayniqsa o‘smirlar tarbiyasi va ta’limiga asosiy e’tiborni qaratish taqazo etilmoqda. Chunki, 15-18 yoshlar oralig‘i insonda jismoniy, fiziologik va ma’naviy jihatdan rivojlanish davridir. Bu davrda berilgan tarbiya va ta’lim yoshlarning shaxs sifatida rivojini ta’minlaydi.

Oilada va ta’lim muassasalarida o‘smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, bu sohada ma’lum yutuqlarga erishi va erishilgan natijalarva yutuqlarni boyitish,chora-tadbirlar ishlab chiqish, sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish istiqbolli rejalarni belgilab olishga bog‘liqdir. Shu boisdan ham tadqiqot ishimizning dastlabki bosqichida mavjud muammolarni tahlil etishga harakat qildik.Bugungi kunda respublikamizning barcha hududlaridagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida , jumladan pedagogika kollejlarida umumiy pedagogika,umumiy psixologiya,oila psixologiyasi kabi fanlar o‘qitilmoqda.²⁸

Ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan yuqoridagi predmetlarning o‘quv dasturlari quyidagi mavzulardan iborat: O‘zbekiston Respublikasida oila nikoh va oilaviy munosabatlarning ijtimoiy,huquqiy asoslari oilada sog‘lom muhitni tashkil qilish psixologiyasi,o‘smir yigit-qizlarning yosh fiziologik,psixologik xususiyatlari, ularda endi boshlanayotgan sevgi va muhabbat tuyg‘ularining mohiyati, bolalar tarbiyasining pedagogik, psixologik jihatlari, oilada ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, burch va majburiyatlar,

²⁷ Karimov I.A.Yangi tafakkurga keng yo‘l//Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo‘lida,T: o‘zbekiston,1998,11 b.

²⁸ Ochilova B. Milliy-ma’naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisilik,T.,”Istiqlol”2009,148-155 b.

o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oila, ta’lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligi, oilaviy ajrimlarning oldini olish va boshqa mavzular o‘rin olgan.

Tadqiqotchi F.A.Akramova yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarining etnopsixologik xususiyatlarini o‘rganishda yigitlarning 57% i, qizlarning 45%i ota-onalarning o‘zaro munosabatlarini kelgusida o‘z oilaviy hayotida takrorlanishlarini xoxlashliklarini aniqlagan. Bu ko‘rsatgichlar o‘zbek oilalarida ota-ona obro‘si, o‘rni va mavqeyuqori ekanligidan dalolat berishini ko‘rsatadi. Shuningdek tadqiqotchining tadqiqot ishlarida va ilmiy risolalarida 32% yigitlar, 17% qizlar “Onamga ma’qul bo‘lgan inson bilan oila quraman”, 60% yigitlar, 20% qizlar “Otamga ma’qul bo‘lgan odam bilan turmush quraman” deb javob bergan. Bunday holat o‘zbek oilalardagi farzandlar va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar hurmat asosiga qurilganini ko‘rsatadi.²⁹

Bugungi kunda Respublikamizdagi mavjud kasb-hunar kollejlari jumladan, pedagogika kollejlari, o‘smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida, ularning oila to‘g‘risida tasavvur va tushunchalarini shakllantirish maqsadida davlat o‘quv dasturlarida belgilab qo‘yilgan predmetlar va mavzular orqali dars jarayonida o‘rgatish imkoniyatlari yaratilgan. Bu borada malakali mutaxassis kadrlar bilan ta’lim muassasalarining ta’minlanganligi, kollejlarda psixologlarga qo‘yilgan bir qancha talablar bularning barchasi ta’lim muassasalarida o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashni ko‘zda tutadi. Pedagogika kollejlari talabalariga ta’lim jarayonida, ”Pedagogika”, ”Umumiy psixologiya”, va “Oila psixologiyasi ” kabi predmetlardagi mavzularda bayon qilingan oila, oilaviy munosabatlar, nikoh va boshqa tushunchalarning mazmun-mohiyatini yoritib berilgan. ”Oila psixologiyasi” pedagogika kollejining uchinchi bosqich talabalariga o‘tiladi. Ushbu predmetning o‘tilishidan maqsad, o‘smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, nikoh va nikohga tayyorgarlik, oilaviy munosabatlarda farzand tarbiyasi va oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, oilada sog‘loq turmush tarzini

²⁹ Akramova F. Talaba yoshlarni bo‘lajak oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini etnopsixologik xususiyatlari” O‘zbek oilasining iqtisodiy ijtimoiy-psixologik muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy ma’ruzalar to‘plami, T.:2000.16-17b.

yaratishning ijtimoiy pedagogik, axloqiy, huquqiy, psixologik, fiziologik, gigiyenik, estetik va oilani iqtisodiy tomondan tarkib toptirish kabi vazifalar qo'yilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, oilada va pedagogika kollejlarda o'smir yoshlarni kelgusida o'z oilalarini qurish, oilada farzand tarbiyasi, ota-onalik vazifalarini burchini tushuntirishdir.

Yuqoridagi predmetlarning ta'lim muassasalarida o'tilishiga sabab, bugungi kunda ayrim oilalarda uchrab turgan o'ylamasdan farzandlarini oilali qilish (uylantirish yoki qilarini turmushga berish)da ota-onalarda pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, buning natijasida yosh oilalarning erta ajrimlari va farzandlarning yetim bo'lib qolishlari, eng achinarlisi jamiyatning asosi bo'lgan mustaxkam, baxtli oilalarning buzilib ketishidir. Mana shu o'rinda G'.B.Shoumarov N.A.Sog'inov va boshqalarning akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Oila psixologiyasi" ayniqsa e'tibor qaratish lozim bo'lgan asarlardan. Chunki u o'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlarini, jumladan, oilada ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni hisobga olgan holda yozilgan psixologik asardir. Psixolog olim G'.B. Shoumarov va boshqalar tomonidan chop etilgan "Onalarga psixologik maslahat" nomli risolada S.A.Oxunjonova, N.A.Sog'inov, I.I.Maxmudovlarning ilmiy tadqiqot ishlarining natijalariga asoslangan holda ota-onalarga oilada farzandlar bilan qanday muomilani yo'lga qo'yish, o'smirlar tarbiyasiga oid tavsiyalar joy olgan. Ushbu qo'llanma o'zbek tilidagi yagona o'quv qo'llanmalardang hisoblanadi. Asarda oilada bola tug'ulganidan to eng murakkab davrlar yani o'smirlik davrining muhim psixologik xususiyatlarini yoritish bilan birga o'smirlar va ota-onalar o'rtasidagi psixologik mug'itni qanday yo'lga qo'yish yuzasidan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.³⁰

Tadqiqotchi T.M.Adizova o'zining ilmiy ishlarida va risolalarida o'zbek oilalarida o'smir yoshdagi farzandlarni muomila madaniyatini shakllantirish,

³⁰ Oila psixologiyasi//Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun. G'.B.Shoumarov tahriri ostida. T.: "Sharq"2000, 272 b.

oiladagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganuvchi metodlar bilan o‘rganmog‘iga muvafaq bo‘lgan. Tadqiqotchi o‘zining ilmiy izlanishlari natijasida quyidagi xulosalarga kelgan: Oilada ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, farzandlarning xarakteri, individual psixologik xususiyatlarining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Yana shuningdek, oilada ota-onalarning o‘z bolasiga ishonch bildirishi, ularni qo‘llab-quvatlashi bolaning muvoqandmandlik xususiyatlarini shakllanishiga sabab bo‘lishi, oilada bola tarbiyasida tarbiya berish usul va metodlarini to‘g‘ri tanlash va ota-onalarning pedagogik, psixologik bilimlarini har doim boyitib borishi lozimligiga to‘xtalib o‘tgan.³¹

Respublikamizda oilalarda o‘zaro munosabatlar, opa-singillar, aka-ukalar, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar masalasida ilmiy izlanishlar qilgan oilalardan G‘.B.Shoumarov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Ularning ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘proq, oiladagi o‘zaro munosabatlar farzandlar va ota-onalar, yoki oilaning boshqa a‘zolari (yaqin qarindoshlar) farzandlarning o‘zaro munosabatlarida ko‘zga tashlanadigan psixologik xolatlar va boshqa xususiyatlar yoritib berilgan. Shu bilan birga o‘zbek oilalarida erkak kishining mavqei va uning oilaning boshlig‘i bu esa oilada farzandlar tarbiyasiga va ta‘sirining ahamiyatli tomonlariga yetarlicha to‘xtalib o‘tgan. Mualliflar bolaning maktabgacha yoshi va o‘smirlik yoshida oila a‘zolarining mehri va e‘tiboriga muhtojligi kuchliroq bo‘lishi va ana shu davrda oila a‘zolari o‘zlarining samimiy munosabatlarini, mehrini o‘z farzandlari va yaqinlaridan ayamasliklari kerakligini ta‘kitlab o‘tgan. Aynan shu davrlarda bola mehrga to‘ymaslik uning keyinga yosh davrlarida bola ruhiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligini, bu masalalarga oilada ota-onalar ta‘lim muassasalarida pedagog va psixologlar ham e‘tibor qaratishlari zarurligini yana bir bora ta‘kidlab o‘tganlar.³²

³¹ Adizova T. Oiladagi o‘zaro munosabat usullari va o‘smir yoshdagi bolalar shaxsining muloqotga kirishuvchanlik sifatleri/Oila davlat tayanchi (ilmiy maqolalar to‘plami). -T.: 1998, 48-54b

³² Ming bir savolga psixologning ming bir javobi. YUNESKO, YUNFPA loyixasi asosida/G‘.Shoumarov taxriri ostida. T.: Mehnat, 2000, 192 b.

Pedagogika kollejlari va akademik litsey o'quvchilari uchun mo'ljallanan "Oila psixologiyasi" fani ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, kattalarga hurmat, oiladagi samimiy munosabatlarni qadrlash, o'smirlarda uchraydigan sevgi-muhabbat, insoniy fazilatlarni shakllantirishni ko'zda tutadi."Oila psixologiyasi" kursining asosiy qismini nikox, nikox oldi munosabatlari, oila va uning turlari, oilaning jamiyat oldidagi vazifalari, oilada barkamol shaxsni kamol toptirish masalalariga bag'ishlangan. Ushbu fan o'z nomidan ko'rinib turibdiki, "Oila psixologiyasi" fanida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda xam pedagogik, ham psixologik, ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yondashilganligini ko'ramiz.O'smirlarni oilaga tayyorlash turli millatlarda turli oilalarda turlicha yondoshiladi. Lekin shuni unutmashimiz kerakki, aynan oila qurishga tayyor o'smirlar o'zlari yaxshi-yomonni, oilaviy munosabatlarni ajrata bilishi, oila haqida tushunchalarga ega bo'lishi lozim. Bu vazifani oilada ota-onalar va yaqin qarindoshlar, ta'lim muassasalarida pedagog o'qituvchilar, kollej, litsey, maktab psixologlari bajarishlari lozim.

Pedagogika kollejlari va akademik litsey o'quvchilari uchun mo'ljallanan "Oila psixologiyasi" fani ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, kattalarga hurmat, oiladagi samimiy munosabatlarni qadrlash, o'smirlarda uchraydigan sevgi-muhabbat, insoniy fazilatlarni shakllantirishni ko'zda tutadi."Oila psixologiyasi" kursining asosiy qismini nikox, nikox oldi munosabatlari, oila va uning turlari, oilaning jamiyat oldidagi vazifalari, oilada barkamol shaxsni kamol toptirish masalalariga bag'ishlangan. Ushbu fan o'z nomidan ko'rinib turibdiki, "Oila psixologiyasi" fanida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda xam pedagogik, ham psixologik, ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yondashilganligini ko'ramiz.O'smirlarni oilaga tayyorlash turli millatlarda turli oilalarda turlicha yondoshiladi. Lekin shuni unutmashimiz kerakki, aynan oila qurishga tayyor o'smirlar o'zlari yaxshi-yomonni, oilaviy munosabatlarni ajrata bilishi, oila haqida tushunchalarga ega bo'lishi lozim. Bu vazifani oilada ota-onalar va yaqin qarindoshlar, ta'lim muassasalarida pedagog o'qituvchilar, kollej, litsey, maktab psixologlari bajarishlari lozim.

Pedagogika kollejlari va akademik litsey o'quvchilari uchun mo'ljallanan "Oila psixologiyasi" fanining asosiy vazifalari, o'smir yoshlarni oilani muqaddas bilishga o'rgatish orqali ularni ma'naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, oilaning ijtimoiy etnopsixologik xususiyatlari bo'yicha tushunchalar hosil qilish, o'quvchilarning shakllanishida oilaning o'rnini haqida tasavvur hosil qilish, yoshlarning oila mustahkamligini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, yosh oilada o'zaro munosabatlar madaniyatini shakllantirish yoshlarni oilaviy muloqotga tayyorlash, o'smir yoshlarni oilaviy hayotda yuzaga keladigan muammolarga konstruktiv tus berishga o'rgatish, yoshlarda muammoli vaziyatlardan psixologik jihatdan oqilona chiqish malakalarini shakllantirish, yoshlarni oilani rejalashtirishga tayyorlash va boshqa masalalarni o'smir yoshlarni tayyorlashdan iboratdir. Ushbu vazifalarni o'zida qamrab olgan mavzular, Oila psixologiyasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari, oilaning ijtimoiy kelib chiqishi, ilk oila va jamiyat munosabatlari, shaxs shakllanishida oilaning o'rnini, oilaning ijtimoiy psixologik xususiyatlari, jinsiy

tarbiya va uning vazifalari, sevgi-muhabbat tuygʻulari va ularning turlari, oʻsmir va oʻspirinlik davrining oʻziga xos xususiyatlari, nikoh, nikoh oldi omillari va ularning nikoh mustahkamligiga taʼsiri, oilaviy nizolar psixologiyasi, oilaviy ajrimlar, ularning sabab va oqibatlari, erta oila qurishning salbiy asoratlari kabi mavzularda bayon etilgan. Quyida Samarqand 1-son pedagogika kolleji oʻquvchilariga oʻtiladigan “Oila psixologiyasi” fanining oʻquv dasturini jadval asosida keltirib oʻtamiz. Bunda mavzular bayoni, mavzularning haftalik va jami soatlari berilgan.

“Oila psixologiyasi” fanining mavzularini taqsimlanishi

№	Fanning boʻlimlari va mavzular nomi	Umumiy yuklama, soat								
		Hammasi	Darslar turi boʻyicha soatlar taqsimoti (auditoriya yuklamasi)							
			jami	Nazariy (Maʼruza)	Amaliy	Labaratori	Se-minar			
1	Psixologiya haqida tushuncha. Oila psixologiyasi fani, predmeti, maqsadi va vazifalari.	5	4	2		2			1	
2	Oila va oilaviy munosabatlar tarixi. Oila xususida shvraq mutafakkirlarning qarashlari.	5	4	2		2			1	
3	Oila turlari va vazifalari.	6	4	2	2				2	
4	Oʻsmirlik va oʻspirinlik davrining oʻziga xos psixologik xususiyatlari.	4	2	2					2	
5	Muhabbat psixologiyasi.	3	2	2					1	
6	Nikoh oldi omillarining xususiyatlari va ularning nikoh mustahkamligiga taʼsiri.	6	4	2	2				2	
7	Oilada shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasi.	6	4	2	2				2	
8	Oilaviy nizolar psixologiyasi. Uning sabab va oqibatlari.	3	2	2					1	
9	Reproduktiv salomatlik ijtimoiy-	3	2	2					1	

	psixologik jihatlari.								
10	OITS(SPID) va jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklarning ijtimoiy psixologik muammolari va ularning yechimlari.	3	2	2	2				1
	Jami:	44	30	18	8	0	4	0	14

Mazkur fan yuzasidan dastur va darslikka qo‘yilgan talablar, davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturida o‘smirlarni oilaviy hayotga ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy pedagogik-psixologik tomondan tayyorlashning barcha tomonlari qamrab olingan, darslikda berilgan mavzularni o‘smir yoshlarga to‘g‘ri tushuntirib, dars jarayonida ta’lim texnologiyalari va metodlardan foydalanish har jihatdan o‘qituvchiga bog‘liqdir. Dars jarayonida mavzularda keltirilgan buyuk allomalarimizning pur hikmat so‘zlarini o‘quvchilarga pedagogik yondoshgan holda tushuntirib ularni oilaviy hayotgav tayyorlashda o‘qituvchi pedagoglardan yuqori mahorat talab etiladi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, deyarli har bir mavzu kollej o‘quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning u yoki bu jihatlari to‘g‘ri keladi.

Birinchi bob yuzasidan xulosa

Mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar singari o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi ham bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. Yuqorida keltirib o‘tganlarimiz pedagog, psixolog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarining asl mazmuni va mohiyati ham mamlakatimizda yosh va mustahkam oilalarning sonini ko‘paytirish, yangi oila qurish arafasida turgan o‘smirlarni mustaqil oilaviy hayotga pedagogik-psixologik tomondan yondoshganligini ko‘ramiz. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki:

O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasida juda ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilganiga qaramay, hali bu jarayon to‘liq tadqiq etilmagan.

Oilaviy ajrimlar, oiladagi turli kelishmovchiliklar va nizolarning asl sababi, oila qurayotgan yoshlarning va ularning ota onalarida pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmaslik sababidir.

Shu bois ham aynan mustaqil hayotga qadam bosish arafasida turgan o‘smir yigit-qizlarda oilaviy hayot, oilaning muqaddas dargoh ekanligini, oilaviy munosabatlarda nimalarga e‘tibor qaratish lozimligi borasida yoshlarga mo‘ljallangan tavsiyalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. O‘smirlik davri o‘zining murakkab tomonlari, xususiyatlari bilan boshqa davrlardan farqlanadi. Xuddi shunday o‘smirlarga xos xususiyatlardan biri, ularning mustaqil hayotga, oilaviy hayotga moyilliklarining aynan shu davrda ortishidir. Oilaviy hayotga moillik va qiziqish o‘smir yigitlarga qaragandan ko‘ra o‘smir qizlarda kuchliroq bo‘ladi.

O‘smirlarni oilaviy hayotga pedagogik jihatdan tayyorlashda, o‘zbek xalqining o‘ziga xos tajribasi, urf-odatlarini, an‘analari bo‘lib, ular asrlar davomida shakllanib, avlod-dan-avlodga o‘tib kelgan va hozirgi davrda yangicha mazmun kasb etmoqda. Bu borada xalq pedagogikasi va pedagog-psixolog olimlarning ilmiy izlanishlaridan, tadqiqot ishlaridan tajribalaridan foydalanish mumkin.

So‘ngi yillarda o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasida pedagogika nazariyasi va amaliyotida ham ko‘pgina tajribalar to‘plandi. Jumladan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qo‘llaniladigan “Oila psixologiyasi”, “Oila pedagogikasi”, “Sog‘lom avlod”, “Ona va bola” dasturlarining ishlab chiqilishi va ta’lim jarayonida qo‘llanilishi o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosining ham ilmiy-pedagogik, ham davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligidan dalolat beradi.

II BOB. O‘SMIRLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI

2.1.Dars jarayonida o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni va mohiyati

Pedagogika fanidan izoxli lug‘atda darsga quyidagicha ta’rif berilgan.

Dars-o‘z oldiga qo‘ygan aniq maqsadi va tugal mazmundan iborat jarayon. Dars, bu bevosita o‘qituvchi raxbarligidagi muayyan ta’lim oluvchilar guruh bilan olib boriladigan ta’lim mashg‘ulotidir. Dars-o‘quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli markaziy qismidir. Ta’lim nazariyasi va amaliyotida dars turlari va ularning tuzilishiga ham alohida muammo sifatida qaraladi va o‘rganiladi. Dars bilim, ko‘nikma va malakalar bilan ta’lim oluvchilarni qurollantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Shu sababli o‘quv mashg‘ulotlariga ajratilgan vaqtning asosiy qismi dars o‘tish uchun sarflanadi. Bu borada mashg‘ulotning quyidagi ikki usuli mavjuddir:

1.Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar.

2.Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar.

Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlarda o‘qituvchining kundalik o‘quv materialini bayon qilib berishi amalga oshiriladi. Bunda ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni amalga oshiriladi. Amaliy va tajriba shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar sinf sharoitida o‘quv ustaxonasi, tajriba er uchastkalari va jamoa xo‘jalik ekin maydonlarida o‘tkazish yo‘li bilan olib boriladi. Dars turlari va tuzilishi quyidagilardan iborat: yangi bilimlarni bayon qilish; o‘tilganlarni mustahkamlash; takrorlash, umumlashtiruvchi va kirish darslari, aralash darslar. Dars jarayonlari o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotidagi o‘rni kattadir. Dars jarayoni bilim oluvchilarga, ham ta’limiy, ham tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatga ega. Aynan o‘quvchilar darslarda o‘quv faoliyati bilan bir qatorda o‘zlarida mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, ijod qilish kabi xususiyatlarni shakllantiradilar. Yosh avlodni voyaga etkazish, ularda

ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda, ularning ertangi kelajagining yorug' bo'lishida dars mashg'ulotlarining o'rni kattadir.³³

Sog'lom va mustahkam oilalarda kamol topayotgan bolalarning ma'naviyati ham yuksak bo'ladi. Oila esa sog'lom turmush tarzining asosi hisoblanadi. Buning uchun esa oilada sog'lom ma'naviy muhit hukumron bo'lishi, oila a'zolarining bir-birlari bilan samimiy munosabatda bo'lishlari, ota-ona va farzandlarning o'zaro hurmati, o'zbek oilalarining farzand tarbiyasiga yondashuvida milliy urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz asosida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash muhim ahamiyatga egadir. Sog'lom va baxtli oilada o'sib ulg'ayayotgan farzandlar, jamiyat ravnaqi uchun oila mustahkamligi uchun o'z ma'suliyatini his qiladigan bo'lib voyaga etadi. Bunda esa oila ma'naviy muhitining o'rni katta. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida, jumladan, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda o'tiladigan "Oila psixologiyasi", "Pedagogika" fanlarining o'qitilishi muhim hisoblanadi. Ushbu fanlarda asosan, oilada, farzand tarbiyasi, oilada ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, burch va vazifalari, oilada tejamkorlik, bola shaxsining shakllanishida oilaning o'rni va boshqa masalalar bayon qilinib, bularning barchasi yangi hayot ostonasida turgan o'smir yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashni ko'zda tutadi. Xususan, pedagogika kollejlarining ikkinchi va uchinchi bosqichlari o'quvchilariga o'tiladigan "Oila psixologiyasi" fanining asosiy mazmun mohiyati o'smir yoshlarning oilaga tayyorlashdan iboratdir. Bunda asosan, oila va uning ijtimoiy kelib chiqish tarixi, oilalarning turlari, nikoh oldi omillari, o'smirlik va o'spirinlik yoshidagilar bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar ahamiyati, o'smir yoshdagi o'quvchilarni turli yomon illatlar, kashandalik, ichkilikbozlik, o'g'rilik va shunga o'xshash jirkanch holatlarga tushib qolishdan asrash, oilani rejalashtirish kabi bir qator mavzular orqali yoritib berilgan. Pedagog va psixolog tadqiqotchi olimlarning ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatadiki, o'smirlarni oilaviy hayotga

³³ Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at, -T.: "Fan va texnologiya" 2009. 672b.

tayyorlash juda murakkab va ma'suliyatli jarayon hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda tadqiqot ishlarini olib borishda bir qancha omillar ko'rsatib o'tilgan:

a) oila a'zolarining ma'naviy qiyofasi, ularning dunyoqarashi, ularning birlariga munosabati;

b) oila a'zolarining ijtimoiylashuvi darajasi;

v) oila a'zolarining oilani rejalashtirish, farzandlar tarbiyasidagi qarashlarning mosligi.

Tadqiqot muammosi doirasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida ushbu omillar asosida ish ko'rildi. Tajriba-sinov ishlarini olib borish mobaynida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaning o'rnini muhim degan xulosaga keldik. Chunki o'smir yoshdagi yigit-qizlarning odob-axloq sifatleri, dunyoqarashi, oila haqidagi dastlabki tushunchalari oilada shakllanadi.

Magistrlik dissertatsiyamizning tadqiqot jarayonida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash oila va ta'lim muassasalarida amalga oshirilishida:

a) nikoh va nikoh oldi omillari, oila qurish shartlari, oilaviy munosabatlar mazmuni, oilada sog'lom psixologik muhitning vujudga keltirishda oila a'zolarining o'rnini, oila salomatligini saqlash, oila iqtisodini shakllantirish undan oqilona foydalanish, oilada barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga etkazish. oilada er-xotin munosabatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, oila a'zolari va qarindoshlar o'rtasida samimiy mushosabatlarni shakllantirish mavzusida suhbatlarni tashkil etish;

b) oila va mahallada o'smir yoshdagi qizlar tarbiyasi borasida, "Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda nimalarga e'tibor qaratish lozim?", "Qizlarning erta turmush qurishlarining sabablari va salbiy oqibatlari", "Xalq pedagogikasida qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi o'rnini", "Oila qadriyatlari va an'analari muqaddas" kabi mavzularda davra suhbatlarini o'tkazish va bunday tadbirlarda shu sohadagi mutaxassislar ishtirokini ta'minlash;

v) o'smir yoshdagi yigit-qizlar ishtirokida ta'lim muassasalarida (pedagogika kollejlari) turli mavzularda, "Oila muqaddas", "Oilada qaynona-kelin

munosabatlari”, “Oilada erkak kishi oilaning asosiy tayanchi”, “Oilaviy byudjetni qanday yo‘lga qo‘ymoqchisiz?”, “Oilaviy ziddiyatlar va nizolarni qanday hal qilgan bo‘lardingiz?”, ”Oilada oilani rejalashtirish va baxtli oila qurish kimga va nimaga ko‘proq bog‘liq” kabi mavzularda seminar- treninglar o‘tkazish;

O‘smir yoshlarni oilaviy hayotga pedagogik jihatdan tayyorlashda ta’lim muassasalarida bir qancha metodlardan foydalanish mumkin.

1) **Kuzatish metodi** (oilada va t’lim dargohlarida dars jarayonlarida, to‘garak va boshqa faoliyatlarda) o‘smir yoshlarni tashqi tomondan, ularning xatti-harakatlarini, axloq-odobini, odamlar bilan munosabatini, tashqi ta’sirlarga javobini kuzatish imkonini beradi;

2) **Suhbat metodi** (muayyan faoliyat, yoki dars jarayonida) orqali o‘smirlarning ruhiyatidagi o‘y-fikrlari, orzu-niyatlari, his-tuyg‘ulari, ruhiy kechinmalari ularning erishgan muvaffaqiyatlari o‘zlarini qiynayotgan va javob topa ololmayotgan savollari va boshqa xususiyalari haqida ma’lumot olish mumkin;

3) **Tushuntirish metodi**, bu metod orqali yangi oila qurish ostonasida turgan o‘smir yoshlarga kelgusida oilalarida duch keladigan muammolar, ziddiyatlar, shuning bilan birga ro‘zg‘or tutish odobi, farzandlar tarbiyalashda nimalarga e’tibor qaratish lozimligi, sog‘lom va baxtli oila qurish sirlari haqida bilimlar, tushunchalar berish mumkin.

4) **Baxs (munozara)metodi**, bu metoddan ko‘p hollarda oilada ota-onalar va boshqa oila a’zolari bilan turli mavzularda, misol uchun. Televideniyalarda ko‘rsatiladigan turli xil oilaviy mojarolarni o‘zida aks ettirgan ko‘rsatuvlar, shuningdek erta turmush qurish va ularning salbiy oqibatlari aks etgan kinofilmlar, gazeta-jurnallarda nashr qilingan oilalarning ajrimlarini keltirib chiqaruvchi sabablar va boshqa shunga o‘xshash mavzular muhokamasida birgalikda suhbat orqali o‘tkazish mumkin;

5) **Manbalar bilan ishlash metodi**. Ushbu metoddan ta’lim muassasalarida (pedagogika kollejlarida) “Psixologiya”, ”Umumiy pedagogika”, “Oila

psixologiyasi” kabi fanlar jarayonida yoki darsdan tashqari seminar-treninglarda qo‘llash mumkin. Bu metod o‘z nomidan ma’lumki, yani, o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida turli manbalar, nikoh, oila qurish, oilaning turlari, ajrimlar sabablarini, farzandlar tarbiyasidagi qiyinchiliklar, turli yomon illatlarning salbiy oqibatlari va o‘smirlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda lozim bo‘lgan manbalar bilan ishlash orqali ma’lumotlarni bilib olishga o‘rgatadi;

6) **Rag‘batlantirish metodi** (oilada va ta’lim jarayonida) oilada, ta’lim jarayonida o‘smirlar faoliyatini kuzatgan holda va ma’lum topshiriqlar berish orqali ularning bajarilishiga qarab, o‘smirning xatti-harakati, yuz ifodasi, kayfiyati va ruhiyatiga ta’sir etuvchi metod hisoblanadi. Rag‘batlantirish metodi oilada kattalar tomonidan, ta’lim jarayonida o‘qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. O‘smirlarga oiladagi “Barakalla”, “Senga ishonardim”, “Sen buni eplaysan”, “Sen bunga loyiqsan (ijobiy ma’nodagi)” kabi rag‘batlantiruvchi so‘zlari, dars jarayonidagi o‘qituvchilarning shu ma’nodagi so‘zlari va xatti-harakatlari o‘smir yoshlarni o‘ziga ishonchini oshirish bilan bir qatorda o‘zlariga va o‘zgalarga bo‘lgan munosabatlarni, ma’suliyatni oshirishga xizmat qiladi;

7) **Jazolash metodi.** Bu metod rag‘batlantiruvchi metodning aksi bo‘lib, o‘smirlarning bilib, bilmay qilgan xato-kamchiliklari tufayli kattalar tomonidan qo‘llaniladi. Jazolash metodini pedagogik jarayonda oiladagi holatga qaraganda qo‘llash yaxshiroq natija beradi. Chunki oilada ota-ona o‘z farzandini (o‘smir yosh) koyishi, tarbiyabiy tomondan jazolashi ularga qattiq ta’sir qilishi mumkin, biroq ta’lim jarayonida turli metod va vositalar orqali pedagog va psixologlar tomonidan amalga oshirilsa bu holat o‘smirlarga o‘zlarin tutib olishga va kamchiliklarini tushunishga imkon beradi;

8) **Muammoli vaziyat metodi.** Bu metod turli vaziyatlarni suniy ravishda yuzaga keltirib bu muammoli vaziyatning yechimini topishga undaydi va bu metod turli metodlarni birga qo‘llash orqali amalga oshirilsa yanada maqsadga muvofiq. Misol uchun, “Rolli o‘yinlar”, “Klaster” va boshqa metodlar. Bu metodning muammoli vaziyatlariga mavzu qo‘yiladi. Qaynona-kelin, er-xotin, ota-

ona va farzanlar o'rtasidagi tushunmovchiliklar va boshqa turli mavzularni olish mumkin. Ushbu metodni qo'llash orqali o'smirlardagi nafrat, o'ziga past baho berish, xudbinlik, yomon illatlarga beriluvchanlik kabi yomon xislatlarni bartaraf etish mumkin.

O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda, "Oila psixologiyasi" fanining mavzulari yuzasidan ham o'quv mashg'ulotlarini yangi pedagog texnologiyalar asosida o'tish ham yaxshi natija beradi. Quyida keltirib o'tmoqchi bo'lganimiz pedagogika kollejarining 3-bosqich o'quvchilariga mo'ljallangan "Oila psixologiyasi" kursining "Oila turlari va vazifalari" mavzusidagi bir soatlik dars ishlanmasidir.

Mavzu: "Oila turlari va vazifalari".

O'quv mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi modeli.

Vaqt: 2 soat	O'quvchilar soni: 25 ta
O'quv mashg'ulot shakli va turi	Nazariy, amaliy: Pedagogika
O'quv mashg'uloti rejasi	Oila turlari va vazifalari Jamiyatda nuklear va ko'p bo'g'inli oilalarning o'rni. Oila va jamiyat munosabatlari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi:	O'quvchilarda oila turlari va vazifalari haqida tushunchalarni shakllantirish.
Pedagogik vazifalar: -Oila turlari va vazifalari haqida o'rgatish. -Jamiyatda nuklear va uo'p bo'g'inli oilalarning o'rni haqida o'rgatish. -Oila va jamiyat munosabatlarini o'rgatish.	O'quv faoliyati natijalari: -Oila turlari va vazifalari haqida ma'lumotga ega bo'ladi. -Jamiyatda nuklear va uo'p bo'g'inli oilalarning o'rni haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Oila va jamiyat munosabatlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
O'qitish metodlari:	Mashq, yo'riqnoma berish, nazariy, amaliy, ko'rsatish, tushuntirish
O'quv faoliyatini tashkil etish shakllari:	Ommaviy, jamoaviy, guruhli, individual
O'qitish vositalari:	Dars reja, ishchi dastur, dars konspekti, savolli

	kartochkalar,krasvord,test,slaydlar va hakoza.
O'qitish sharoiti:	O'quv xonasi
Qaytar aloqaning usul va vositalari:	Og'zaki so'rov.

O'quvchilarga o'qituvchi tomonidan oila turlari va vazifalari haqida ma'lumot beriladi. Bugungi kunda oilalarning

1. To'liqligiga ko'ra: to'liq, noto'liq va qayta tuzilgan (ikkinchi nikoh) oilalar.

2. Bo'g'inlar soniga ko'ra: nuklear (ota-ona va bolalardan iborat bo'lgan) va ko'p bo'g'inli (ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a'zolari birga yashovchi) oilalar.

3. Farzandlar soniga ko'ra: farzandsiz, bir bolali, ikki bolali, 3-4,5 va undan ortiq bolali oilalar.

4. Er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar oilasi, tadbirkorlar, aralash turdagi oila.

5. Er-xotinning ma'lumot saviyasiga ko'ra: oilaviy ma'lumotlilar, o'rta-maxsus, tugatilmagan o'rta va boshqa.

6. Regional jihatlariga ko'ra: shahar, qishloq, aralash tipdagi oila.

7. Oilada er-xotin orasidagi munosabatlariga ko'ra: avtoritar, demokratik, liberal, aralash tipdagi oilalar.

8. Er-xotinning millatiga ko'ra: bir millatli, yoki baynalminal oilalar. Misol, o'zbek-tojik, o'zbek-rus.

Shundan so'ng o'quvchilarga slaydli holatda tayyorlangan oilalarning funksiyalari haqida ma'lumot beriladi.

Oilalarning bir qator vazifalari borki ushbu vazifalar oila muhitida, farzandlar tarbiyasida, er-xotin munosabatlarida muhim rol o'ynaydi.

Bu vazifalar o'z xususiyatiga ko'ra ma'nomazmun aks ettiradi. Misol uchun oilaning kommunikativ vazifasi oila a'zolarining o'zaro bir-birlariga bo'lgan

munosabatlarda, oilaning rekreativ vazifasi esa, oila a'zolarining o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish, bir-birlarining salomatligiga befarq bo'lmashliklarini ifodalaydi. Shuningdek oilaning kommunikativ vazifasi, rekreativ, regulyativ, felisitologik, relaksatsiya kabi vazifalari mavjud. O'qituvchi ularning har biriga alohida to'talib tushuntirib o'tadi. Shundan so'ng o'quvchilarga savollar bilan murojaat qiladi.

1. Oilaning turlari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
2. Oilaning bo'g'inlar soniga ko'ra turlarini ayting?
3. Oilaning fazifalarini sanab o'ting?
4. Oilaning kommunikativ vazifasini yoritib bering?


O'quvchilar o'qituvchidan eshitib bilib olgan ma'lumotlari asosida yuqoridagi savollarga javob yozadilar.

O'quvchilar **“Baliq skleti”** interfaol metodidan foydalanib o'zlarining javoblarini yozadilar. O'quvchilar yozib bo'lganlaridan keyin o'qituvchi o'quvchilar bilan javoblarini eshitib xulosa chiqaradilar va quyidagicha baholaydi.

№	Boholash mezonlari	Baho
1	Berilgan 4 ta savolning barchasiga to'g'ri va aniq, misollar yordamida javob bergan o'quvchiga	5
2	Berilgan 4 ta savolga to'g'ri, lekin xatolardan holi bo'lmagan qisqa javob bergan o'quvchiga	4
3	Berilgan 4 ta savoldan bittasiga javob bermagan va qolgan savollarga ham xatolardan xoli bo'lmagan, qisqa javob bergan o'quvchiga	3
4	Berilgan 4 ta savoldan kamida 2 tasiga javob bermagan o'quvchiga	2

O‘tilgan mavzu yuzasidan ta’lim texnologiyasi bilan yoritish.

BALIQ SKLETI



O‘smirlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida pedagogik ta’sir vositalarining kuchiga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot muammosi doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish chog‘ida pedagogik ta’sir ko‘rsatishning quyidagi vositalari samarali ekanligi aniqlandi:

1. O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash maqsadida olib borilgan ta’lim-tarbiya. O‘smir yoshlarni ma’lum faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish o‘smir yoshdagi yigit-qizlarning oilaviy hayotni tashkil etish borasidagi nazariy hamda amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantiriladi.

2. O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida milliy urf-odat va an’analardan va umuminsoniy fazilatlar aks ettirilgan g‘oyalardan foydalanish. O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy urf-odatlardan foydalanish, ularda ro‘zg‘or tutish odobini, oilada kattalarga hurmat ko‘rsatish, oilaviy sirlarni oshkor qilmaslik, oiladagi muammolarni kattalar bilan maslahatlashib hal etish, samimiylik, kamtarinlik kabi inoniy fazilatlarni shakllantiradi.

3. Xalq pedagogikasi orqali o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularni milliy merosimiz, xalq og‘zaki ijodi namunalarni qo‘llash, o‘smir yigitlarda

marjlik, jasurlik, halollik, ma'suliyatlilik, qizlarda esa oilada xonadonni toza-ozoda saqlash, oila a'zolariga muomilani, hurmat ko'rsatish, farzand tarbilash, kiyinish kabi sifatlarni shakllantirishda xizmat qiladi.

4. Ommaviy axborot vositalarida taqdim etadigan ko'rsatuvlarda o'smir yoshdagi yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda, ularga turmush odobi, oilaviy mojarolarning sabablari va hal etish yo'llari, kelin olish va o'g'il uylantirishda nimalarga e'tibor berish kerakligini, oila salomatligini saqlash, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, oilani mustahkamlashga doir bilimlarini boyitishga yordam beradi.

5. Oilada ota-ona va oilaning boshqa a'zolari tomonidan ko'rsatiladigan namunali, o'rnak bo'lsa arziydigan amallarni o'rgatilishi o'smirlarning oilaviy hayotini qurishda ko'mak bo'ladi. Chunki, eng avvalo o'smirlar oilaviy bilim ko'nikma va tushunchalarni oila a'zolaridan oladi. Shu bois oilaning katta a'zolari o'smirlarga shaxsiy namuna bo'lishlari lozim.

6. Oila va ta'lim jarayonida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oiladagi barcha buyumlarni qadrlashga o'rgatish, ham iqtisodiy ham ma'naviy estetik jihatdan tarbiyalash muhim sanaladi. Har bir oila a'zosi ayniqsa oilada ayollar oiladagi har bir buyum, jihoz va boshqa oilaga daxldor narsalarni avaylashlari lozim.

Yuqorida keltirilgan fikrlar o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda e'tiborga olinsa va o'smirlarga oilada va dars jarayonlarida shu xususida bilimlar berilsa mustahkam va baxtli oilalar safi ko'payadi.

O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oila, ta'lim muassasasi va mahalla hamkorligini yo'lga qo'yish yaxshi natija beradi. Mahallalarda turli tarbiyaviy tadbirlar, suhbatlar, o'tkazilishi bu suhbatlarda tibbiyot xodimlari, psixologlar, pedagoglar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar ishtirok etilsa maqsadga muvofiq. Mahalla xotin-qizlar qo'mitasi xamkorligida o'smir yoshdagi qizlar bilan davra suhbatlari o'tkazilib, ularning o'y-fikr, orzu-niyatlari bilan o'rtoqlashish, o'smir qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim hisoblanadi.

Demak dars o‘quv jarayonining asosiy shakli. Darsni yuqori saviyada o‘tish, uning mazmunini o‘quvchilarga yetkazib berish o‘qituvchidan chuqur bilim, yetarli tajriba va teshishli ravishda mahorat talab qiladi. Shu bois pedagogika kollejlarda o‘quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashda boshqa fanlar qatori “Pedagogika”, “Psixologiya” fanlarining imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanish lozim. Buning uchun quyidagilarga e‘tibor qaratish kerak:

1. Pedagogika kollejlarda “Pedagogika-psixologiya yo‘nalishida dars berayotgan o‘qituvchilarning saviyasi, dunyoqarashi, bilim tajribasi, hayotiy tajriba egaligi inobatga olinishi lozim.

2. O‘smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda “Umumiy pedagogika”, “Umumiy psixologiya”, “Oila psixologiyasi” darslarida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishga e‘tiborni qaratish.

3. Oilashunos olimlar tomonidan o‘smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq uslubiy tavsiyalarga ehtiyoj mavju.

4. Ommaviy axborot vositalarida o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq muammolarning yechimlariga bog‘liq eshittirish va ko‘rsatuvlar tayyorlash, maqolalarni chop etish maqsadga muvofiq.

5. Dars jarayonida uning mazmunidan kelib chiqib o‘smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq muammolarni yechishda xalq pedagogikasi bilan bog‘lash lozim.

2.2. O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda tarbiyaviy tadbirlarning imkoniyatlari

Mustaqillik yillarida davlatimiz tomonidan ta‘lim-tarbiya jarayoniga berilayotgan e‘tibor nihoyatda katta ahamiyat kasb etmoqda. Berilayotgan bunday e‘tiborlarning barchasi kelajagimiz egalari bo‘lgan yosh avlodni har jihatdan sog‘lom, ma‘nan yetuk, yurt kelajagi, vatan ravnaqi uchun nafi tegadigan farzandlar bo‘lib etishishlari uchundir. Bu jarayonda milliy merosimizdan oqilona foydalanilayotgani e‘tiborga molik.

Darsdan tashqari vaqtlarda o‘quvchilar bilan turli xil ta’lim-tarbiya ishlari olib boriladi. Bunday ishlar o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Darsdan va auditoriyadan tashqari ishlar maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan olib boriladi. Bu muassasalar ikki xilga bo‘linadi birinchisi ko‘p xil ta’lim-tarbiya ishlarini olib boradigan muassasalar, ya’ni o‘quvchilar saroylari, bolalar klublari, bolalar istirohat bog‘lari, bolalar maydonchalari, yozgi dam olish lagerlari shular jumlasidandir. Ikkinchisi, faqat ma’lum bir sohada bolalar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini olib boradigan muassasalar. Bunday muassasalrga bolalar kutubxonalarini, yosh tabiatshunoslar stansiyalari, bolalar teatrlari, bolalar turistik bazalari, bolalar stadionlari kiradi.

Darsdan va auditoriyadan tashqari ishlar o‘ziga xos xususiyatlari bilan dars mashg‘ulotlaridan farq qiladi. Bu ish ixtiyoriy asosda tashkil etiladi. O‘quvchilar o‘z qiziqishlari va layoqatlariga qarab turli to‘garaklarga o‘z ixtiyorlari bilan yoziladilar. Darsdan va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarning mazmuni va formasi asosan o‘quvchilarning qiziqishlariga va talablariga hamda mahalliy sharoitga bog‘liq bo‘ladi va darsdan va auditoridan tashqari ishlarning natijalarini hisobga olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Darsdan va auditoriyadan tashqari tadbirlarning samarali bo‘lishi, ularni muntazam o‘tkazishga, xilma-xil fanlarda mavzularda o‘tkazilishiga bog‘liq. Bunga ochiq reja asosida ishlash va ish natijalarini hisobga olib borish orqali erishiladi. Darsdan va auditoriyadan tashqari tadbirlar ko‘zlangan maqsad bolalarda yangi qiziqishlarni tug‘dirish, ularni har tomonlama rivojlangshan kishilar qilib tarbiyalashdan iborat. Bu jarayonning yana bir muhim xususiyatlaridan jamoa bo‘lib ishlashga, yashashga o‘rganadilar.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov: “Biz farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to‘plagan hadislar, Naqshbandiy ta’limoti, Termiziy o‘g‘itlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilmoqdamiz” degan fikrlarini yodga olish o‘rinlidir.

Tarbiyaning bir necha turlari haqida Usmonxon Alimov o'zining "Oilada farzand tarbiyasi" risolasida keltirib o'tadi. Tarbiyaning: badan tarbiyasi, ruhiy tarbiya, aql va fikr tarbiyasi, axloqiy tarbiya, iroda tarbiyasi, so'zlashuv tarbiyasi, mehnat tarbiyasi va boshqa turlari mavjud. Tarbiya turlarining biri o'z navbatida ikkinchisini chorlaydi. Misol uchun badan tarbiyasida, bolani jismonan baquvvat qilib tarbiyalash, uni tozalikka, poklikka o'rgatishni talab etsa, aql va fikr tarbiyasi bolani zakovati, xotirasi va mushohada qobiliyatlarini takomillashtirishga yordam beradi. Iroda tarbiyasi bolani sabr-toqatli bo'lishga o'rgansa, so'zlashuv tarbiyasi bola kamolotida muhim bo'lgan to'g'ri talaffuz qoidalarini, farosatli gapirish, kattalarga hurmat bilan murojaat qilish qoidalarini o'rgatadi.³⁴

O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda va tarbiyalashda yuqoridagi tarbiya turlarining o'rni muhim sanaladi. Bugungi kunda yosh avlodga tarbiya berida ularni oilaviy hayotga tayyorlashda darsdan va auditoriyadan tashqari tadbirlarning roli kattadir.

Biz tadqiqotimiz davomida Samarqand 1-son pedagogika kolleji o'quvchilari bilan 2017-yil 7-may kuni "O'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash" mavzusida davra suhbatini o'tkazdik. Davra suhbatida, Samarqand viloyat ruhiy kasalliklar shifoxonasi bosh suitsidologi U.P.Shukurullayeva, kollej ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari K.M.Mahaddinova, kollej psixologi X.Qo'ziyeva va kollejning "Oila psixologiyasi" fani o'qituvchisi M.Bo'riboev hamda kollejning birinchi, ikkinchi va uchunchi bosqich o'quvchilari qatnashdilar.Yig'ilishni ma'naviyat va ma'rifat ishlaricha bo'yicha direktor o'rinbosari K.M.Mahaddinova kirish so'zi bilan boshlab, bugungi kunda kollejimizda mingdan ortiq o'smir yigit-qizlar tahsil olmoqda. Kollejda ularga ta'lim-tarbiya berilishi bilan bir qatorda ularni oilaviy hayotga tayyorlash borasida ham tushuncha va bilimlar berilmoqda. Shunga qaramasdan bugungi kunda o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda turli muammolarga duch kelmoqdamiz.Ularning fiziologik, psixologik holatlarida ruhiy kechinmalarida

³⁴ Alimov Usmonxon.Oilada farzand tarbiyasi.-T.:2014 60-63 b.

keskin o'zgarishlarni guvohi bo'layapmiz deb o'z so'zlarini tkgatda. Bu haqda so'zni kengroq ma'lumot berish uchun SVRKSH (Samarqand viloyat ruhiy kasalliklar shifoxonasi) bosh suitsidologi, vrach-psixiatr U.P.Shukurullayevaga berdi. U.P.Shukurullayeva o'smirlarga aynan o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari va ularni oila qurushlarida uchraydigan holatlar haqida ma'lumotlar berar ekan: "Hurmatli yoshlar sizlar ertangi kunimizning egasisizlar, sizlarning baxtli hayot kechirishlaringiz uchun bugungi kunda mamlakatimizda barcha imkoniyatlar yaratilgan. Bugun mustaqil oila qurish arafasida turgan yoshlarni har tomonlama ma'naviy-axloqiy, jismoniy-ruhiy tayyorgarlik darajasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini aytib o'tdilar" va o'z so'zlarini o'smirlik davrida uchrab turadigan noxush xolatlardan biri suitsid holati haqida yig'ilish qatnashchilariga ma'lumot berib o'tdi. So'zining yakunida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilada ota-ona ta'lim jarayonida ustozlarining o'zni va ahamiyati juda katta ekanligini ta'kidladi. Yuqoridagi fikrlarni davom ettirib, kollej psixologi X.Qo'ziyeva so'zga chiqdi va bugungi kunda kollej miqyosida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga katta e'tibor berilayotgani shunga qaramasdan ayrim kollej o'quvchilarining erta turmush qurish holatlarining guvohi bo'layapmiz. Buning asl sababi o'smirlarda va ularning ota-onalarida pedagogik, psixologik bilimlarning etishmasligi, o'z bolasining taqdiriga befarqlik holatlari kuzatilayotganini ta'kidladi. Shundan so'ng o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda kollejda "Oila psixologiyasi" fanining o'tilishi, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash mavzusida turli tadbirlar tashkil etilayotganini aytib o'tdi. "Oila psixologiyasi" fanining imkoniyatlaridan foydalanib o'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda, ularni oila, nikoh, oilada farzand tarbiyasi, oilada ota-ona va farzandalarining o'zaro munosabatlari xususida bilimlar berish lozimligini yana bir bora ta'kidlab o'tdi. Erta oila qurishning salbiy oqibatlarini to'g'risida kollej pedagogiya-psixologiya fani o'qituvchisi M.Bo'riboev gapirib o'tdi. Aynan o'smirlar o'rtasida kuzatilayotgan bunday xunuk holatlarga sabab bo'layotgan omillar xususida to'xtaldi. Bugungi

kunda o‘z oilasida o‘smir farzandni tarbiya qilayotgan ota-onalar har doimgidan ham xushyor bo‘lishlari zarurdir. Chunki biz voyaga etgan o‘smir yigit-qizlarni faqat jismoniy yoki fiziologik jihatdan tayyor qilib uyli-joyli qilaolmaymiz, oila qurishga tayyor o‘smirda oilaning qanday muqaddas makon ekanligi, oilaviy munosabatlarda kattalarga, kichiklarga qanday munosabatda bo‘lish lozimligi bilishlari, er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat bo‘lishi mustahkam oilaning asosiy belgisidir deya so‘zlarini davom ettirdi.

Shuningdek o‘qituvchi M.Bo‘riboev erta oila qurayotgan o‘smirlarning oilasida yuzaga kelayotgan turli muammolar, bular iqtisodiy, ijtimoiy psixologik, psixik nizolarni asosiy sababi aynan erta oila qurishdir deb o‘z so‘zini tugatdi.

Shundan so‘ng men tadqiqotchi N.Abdumannotova so‘zga chiqdim. Bugun men o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashga doir ba‘zi ma‘lumotlarni va bugungi kunda oila qurayotgan yoshlarni nikoh oldi tibbiy ko‘rigi borasida turli ma‘lumotlarni keltirib o‘tmoqchiman. Men aytib o‘tmoqchi bo‘lgan ma‘lumotlarimni jadvallar asosida tushuntirib o‘tmoqchiman.

Sog‘lom oilani shakllantirish uchun sog‘lom muhit, ota-ona munosabatlari, yoshlarni oilaga tayyorlash davrida ularning tibbiy, huquqiy, iqtisodiy va psixologik bilimlari saviyasini oshirish hamda reproduktiv madaniyatni shakllantirish ijobiy omillar hisoblanar ekan, buning zahirida kelajak avlod va genafond salomatligi yotadi. Oila qurayotgan yoshlarning kelajakda baxtli turmush kechirishlari ko‘p jihatdan ularning salomatligiga bog‘liqdir. Nikohdan oldingi tibbiy ko‘rikning yo‘lga qo‘yilishi, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsizliklarni oldini olishda juda muhimdir. Nikohlantiruvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad-irsiy va nasliy kasalliklarning oldini olish, oilada sog‘lom muhitni qaror toptirishdir. Xalqimizda sovchilikka borganda yigit-qizning salomatligi so‘raladi ularning yetti pushti so‘rab-surishtiriladi.

Sizlarga bir muhim manbani ko‘rsatib o‘tmoqchiman. Ushbu ma‘lumotlarni “Sog‘lom avlod uchun” jurnalining 2017-yil 4-sonida nashr qilingan TDTU o‘qituvchisi Jamilaxon Komilovning “Nikoh oldi tibbiy ko‘rigi ” mavzusidagi

maqolasidan “Nikoh oldi tibbiy ko‘rikning oila mustahkamligiga ta’siri va samarasini tadqiqot orqali aniqlash” loyihasi doirasida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati yetakchi markazi tomonidan o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari ma’lumot o‘rnida aytib o‘tmoqchiman. Maqolada yozilishicha ushbu loyiha butun respublik miqyosida o‘tkazilgan bo‘lib quyidagi jadval asosida natijalar bayon qilingan.”Nikoh oldi tibbiy ko‘rigi oila qurayotgan yoshlar uchun muhim deb o‘ylaysizmi?” deya berilgan savolga, umumi hisobda 90 foiz respondentlar nikoh oldi tibbiy ko‘rikning bir qator ijobiy tomonlarini sanab o‘tishgan. 30,5 foiz respondentlar fikricha, bunday ko‘rik sog‘lom turmush tarziga asos solar ekan. 28,2 foiz tadqiqot ishtirokchilarining fikricha, nikoh oldi tibbiy ko‘rik kelgusida sog‘lom farzandlar dunyoga kelishida juda muhim o‘rin tutishini aytib o‘tishgan. 20,8 foiz respondentlarning fikricha, bu holat oila mustahkamligiga xizmat qiladi. 18,1 foiz respondent tibbiy ko‘rik nikohdan o‘tayotganlarda mavjud kasallik yoki nuqsonlarni aniqlaydi. 6,3 foizi esa bunday ko‘rikning umuman ahamiyati yo‘qligini aytishgan bo‘lsa, so‘rovnomalarda ishtirok etganlarning 3,9 foizi mazkur savollarga javob bermaganlar. Respondentlarning fikrlarini tahlil etadigan bo‘lsak, o‘smirlar nikohdan oldin tibbiy ko‘rikdan o‘tishlarining ahamiyati yuqori ekanini e’tirof etishgan.

Hududlar	Oila mustahkamligiga xizmat qiladi	Sog‘lom turmush tarziga asos soladi	Sog‘lom farzandlar dunyoga kelishida juda ahamiyatli	Mavjud kasallik va nuqsonlarni aniqlaydi	Hech qanday ahamiyati yo‘q	Javob yo‘q
Andijon	37	67	57	33	14	6
Buxoro	46	84	82	48	8	1
Jizzax	41	78	65	24	2	5
Qashqadaryo	36	68	46	32	11	6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	33	83	69	12	2	3
Navoiy	62	54	58	33	3	19
Namangan	60	53	71	44	12	18
Samarqand	37	84	80	48	6	1

Sirdaryo	60	53	66	44	14	17
Surxondaryo	39	19	20	57	57	20
Toshkent shahri	37	82	77	34	5	1
Toshkent viloyati	40	50	40	36	23	10
Farg‘ona	73	58	25	15	14	6
Xorazm	19	77	83	59	16	1
Jami soni	620	910	839	539	187	114
Jami ulushi	20,8%	30,5%	28,2%	18,1%	6,3%	3,9%

Har bir ota-ona o‘z farzandining baxtli bo‘lishini istaydi, albatta. Lekin “Qizimni tezroq turmushga bersam, xotirjam bo‘lardim” degan noto‘g‘ri qarash bilan qaysidir ma’noda o‘z halovatini o‘ylaydigan, farzandini kelajagini uning bior sohada o‘qishini davom ettirishini, kasb-hunar egallashini o‘ylamaydigan ota-onalar ham yo‘q emas. Bu esa yosh qizlarning erta turmush qurishi va ona bo‘lishi nafaqat ularning sog‘ligiga, balki farzandining kelajagiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatilayotgani aniq ma’lumotlar asosida isbotlab berilmoqda. O‘tkazilgan psixologik tadqiqotlarning natijasiga ko‘ra erta turmush qurgan yoshlar uzoq vaqt ruhiy siqilish holatida yurishlari kuzatilgan. Qizlarning 16-18 yoshlarda ona bo‘lishi jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligini mutaxassislar tomonidan aniqlangan. Erta turmush qurish natijasida erta xomiladorlik bo‘lishi tabiiydir. Ammo bugungi kundagi tibbiy ma’lumotlarga qaraganda erta xomiladorlik ko‘p hollarda bolaning chala tug‘ilishi yoki homilaning o‘limiga olib kelayпти. Barchamizga ma’lumki 16-17 yoshga kirgan yigit-qizlar bo‘ylari cho‘zilib qaddi-qomati o‘zgarib oila kurishga tayyordek ko‘rinadi, ammo ular hali oila deb atalmish muqaddas maknni barpo etishlari biroz mushkul. Chunki oila qurishga tayyor o‘smir yosh har tomonlama ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy-pedagogik tomonlama tayyor bo‘lishlari, shuningdek, qizlar 20-21 yoshdan keyin ham jismonan, ham ruhan ona bo‘lishga tayyor bo‘ladilar. Oila qurish ostonasida turgan yoshlarga oilada ota-onalarning e’tibori va ko‘magi juda muhim, chunki hali hayotning faqat oq tomonlarini ko‘rayotgan o‘smir farzandiga,

oilaning qadr-qimmatini, oiladagi o‘zaro munosabatlar xususida, oilada sog‘lom muhitni yaratish bo‘yicha ota-onadlardan ko‘ra kuchliroq mutaxassis bo‘lmasa kerak. Yuqoridagi mutaxasislarning fikrlarini inobatga olmaslik, erta nikohlar yoshlarning baxtli hayotini ta‘minlay olmasligini bugun barchamiz unutmasligimiz kerak. Shu maqsadda loyiha davomida o‘smir yoshlarning erta oila qurishlari borasida ota onalarga “Yigit-qizlar necha yoshdan oila qurishlari kerak deb o‘ylaysi?” berilgan savollarga respublika bo‘yicha olingan natijalarni jadval asosida keltirib o‘tamiz.

Hududlar	16-17 yosh	18-19 yoshi	19-20 yosh	21-23 yosh	25 yoshdan so‘ng	Javob yo‘q	jami
Andijon	2	14	40	127	45	2	230
Buxoro	8	30	74	89	17	0	218
Jizzax	2	12	37	129	35	0	215
Qashqadaryo	2	16	37	129	35	0	215
Qoraqolpog‘iston Respublikasi	1	4	15	141	51	2	214
Navoiy	5	11	39	102	30	5	192
Namangan	5	11	57	91	41	5	214
Samarqand	8	28	58	74	46	0	214
Sirdaryo	5	13	59	90	38	5	210
Surxondaryo	0	19	39	95	58	1	212
Toshkent shahri	8	29	62	80	30	0	209
Toshkent viloyati	2	14	35	117	47	0	215
Farg‘ona	36	40	33	75	23	4	211
Xorazm	8	30	71	62	41	1	21

Jami soni	92	271	656	1393	541	26	2979
Jami ulushi	3%	9%	22%	47%	18%	1%	100%

Yana sotsiologik tahlilga qaytsak. “Yigit va qizlar necha yoshdan oila qurishi kerak, deb o‘ylaysiz?” deya berilgan savolga respondentlarning javoblari quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ldi. 47foiz yoki 1393 nafar so‘rov ishtirokchilari yigit-qizlar mos ravishda 23 va 21 yosh, deb javob qaytarganlar. Mazkur javob bo‘yicha Qoraqolpog‘iston Respublikasi (141), Jizzax viloyati (129) past ko‘rsatgichni Xorazm viloyati (62) qayd etgani jadvalda ko‘rinib turibdi.

Yoshlar orasida nikoh oldi tibbiy ko‘rikning ahamiyatini targ‘ib qilishda, jismonan sog‘lom, ma‘nan etuk, va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda, yosh qizlarning erta nikohlanishlarini oldini olish hamda mustahkam, sog‘lom oilani shakllantirishda mahallaning, ta‘lim muassasalarining va qolaversa oilaning roli muhimdir.

Yig‘ilish so‘ngida barcha mutaxassislar tomonidan o‘smirlarning oilaviy hayotga tayyorlashda kollej o‘quvchilariga bir qancha maslahatlarini berishdi va kollej o‘quvchilari tomonidan berilgan savollarga javoblar berishdi. Ayniqsa Samarqand 1-son pedagogika kolleji psixologi va ma‘naviyat-ma‘rifat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari mana shunday tadbirlarni kollej miqyosida tez-tez o‘tkazib turishlari lozimligini aytib o‘tildi. Yig‘ilish yakunida ishtirokchilaga erta oila qurishning salbiy oqibatlari aks ettirilgan video rolik taqdim etildi.

O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda shu kabi uchrashuvlarning va davra suhbatlarining ahamiyati katta. Shu bois tadqiqotimiz davomida darsdan va auditoriyadan tashqari bunday mashg‘ulot, seminar-treninglar orqali yosh avlodni oila va nikoh tushunchalariga hurmat bilan qarashga o‘rgatish va ma‘suliyatni oshirishga harakat qildik.³⁵

³⁵ Sog‘lom avlod uchun jurnal.2017-yil 4-son.TDTU o‘qituvchisi Komilova J. “Nikoh oldi tibbiy ko‘rigi” mavzusidagi maqolasi.15-17 b.

2.3.O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy urf-odat va an‘analardan foydalanish

O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida oilada, ta‘lim muassasalarida o‘ziga xos vazifalar bajarilmoqda. Bunday vazifalarni bajarishda o‘zbek xalqining ulkan ma‘naviy merosi, urf-odat va an‘analarimizdan foydalanish masalasiga bugungi kunda katta e‘tibor berilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi so‘zlarini yodga olish o‘rinlidir, “2000-yil 24-fevraldagi “Sog‘lom avlod” davlat dasturining bajarilishiga doir ishlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilish Respublika Komissiyasining yig‘ilishida, “Ushbu dasturda belgilangan vazifadardan eng muhimi o‘smir yoshdagi farzandlarimizni ta‘lim muassasalaridayoq o‘smir yoshdan boshlab oilaviy hayotga tayyorlashimiz zarurdir”.

O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash, sog‘lom va mustahkam oilalarni shakllantirish, oilalarda sog‘lom va ma‘naviy muhitni vujudga keltirish, o‘smir yoshlarni milliy urf-odatlarimiz ruhida tarbiyalash, ularni vatanga sadoqat, yurtga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash kabi bir qator vazifalar 2001 yilda qabul qilingan **“Ona va bola”** davlat dasturida o‘z ifodasini topgan.

Haqiqatdan ham bugungi yosh avlodni ayniqsa o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda o‘zbek xalqining o‘ziga xos milliy urf-odatlari va an‘analari asosida tayyorlash, ko‘p yillar davomida bu tajribalar oilaviy hayotda o‘zini oqlab kelgan.

Tadqiqotchi olimlardan M.Abdullayevaning tadqiqot ishlarida bayon qilinishicha Respublikamizda o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarda aniqlanishicha aholimizning 91% i yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash zarur deb hisoblashi, lekin shunga qaramasdan bu muammoga aholining (ota-onalar, o‘qituvchi, va boshqalar) qarashlari turlicha ekanligini ko‘rsatib o‘tgan. Oilada o‘smirlarni, umuman yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashda o‘zbek xalqining qadimiy urf-odat va an‘analari mavjuddir. Shu boisdan ham tadqiqotchining bir qator ilmiy

izlanishlari va risolalarida o‘mirlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga to‘xtalganini ko‘rishimiz mumkin.³⁶

Urf-odat tushunchalarini “O‘zbek xalqining izohli lug‘ati”ga tayanib, N.Sh.Almetov quyidagicha ta’rif bergan: urf deganda an’ana sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan tartib-qoidalar (odat,rasm,tamoyillar) tushuniladi. Xalq pedagogikasining manbalaridan biri,inson ruhida xilma-xil kechinmalar va kayfiyat uyg‘otib, odamning o‘zini anglashi,shaxs ruhiyatida shakllanishiga ijobiy ta’sir qiladi”,-deydi tadqiqotchi.³⁷

Shuningdek, N.Sh.Almetov urf-odatni “Urf-odat tusiga kirgan an’ana”deydi.Ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, tadqiqotchi olimlar urf-odatlarning mohiyatiga to‘g‘ri yondoshganlar.Har ikkala tushuncha bir-biriga juda yaqin tushuncha, ammo ularni bir xil tushnmaslik kerak. An’ana-o‘ziga xos ijtimoiy hodisa bo‘lib, kishilarning ongida, hayotida o‘z o‘rnini topgan, avloddan-avlodga o‘tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida qabul qilingan tartib va qoidalaridir.An’ana ijtimoiy hayot,mehnat, madaniy hayotning barcha sohalariga xos bo‘lib,keng doirani qamrab oladi. Urf-odat esa, ijtimoiy hayotning ma’lum sohalarini qamrab olib, kishilar turmushi, xulq-atvori, muloqoti oilaviy hayotida nomoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra ham urf-odat an’ananing tarkibiy qismi sanaladi va ma’lum muddatda o‘sib,rivojlanib, takrorlanib borib an’ana darajasiga ko‘tariladi.

Turli marosimlar ham ijtimoiy hayotda muhim bo‘lib, ular urf-odatlarning tarkibiy qismi sanaladi. Shu bois insonlar hayotida ma’lum bir voqealarni nishonlashga qaratilgan,insonlarga ko‘tarinkilik bag‘ishlaydigan ramziy marosim hisoblanadi. Bu marosimlar xalqning ma’lum bir ehtiyojlarini, ularning hayotidagi muammolarni, xursandchilik, g‘am-alam va boshqalarini ifodalaydi.

Milliy urf-odat an’analar va marosimlar o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Urf-odat va an’analarning yoshlarni

³⁶ Ona va bola davlat dasturi to‘g‘risida.Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 5-fevral № 68 qarori 75-b

³⁷ Alimetov N.SH.Pedagogika savollar va javoblar: O‘quv qo‘llanma. T.: 2001,201 b.

oilaviy hayotga tayyorlashdagi o'zni masalasida, faylasuf olimlardan, X.Shayxova, M.Xolmatova, psixologlardan G.Shoumarov, V.Karimova, fiziologik va gigenik jihatdan D.Sharipova, D.Xoliqovlar, pedagogik jihatlarini esa, A.Q.Munavvarov, O.Musurmonova va M.Inomovalar tadqiq etganlar.³⁸

Milliy urf-odat va an'analarimining o'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi o'zni va ahamiyati xususida tadqiqotchi olimlarning fikrlariga ko'ra, yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashda birinchidan xalq turmushida an'anaga aylangan urf-odat va rasm-rusumlarni aniq ajratishga imkon yaratsa. ikkinchidan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odat va an'analarni o'rganib ularni yanada boyitishga imkon beradi.

Tadqiqotchi olim M.Abdullayevaning tadqiqot ishlarida milliy urf-odat va an'analarning bir necha turlarini keltirib o'tgan. Tadqiqotchining fikrlariga ko'ra milliy urf-odat va an'analarni o'rganish va ularni tahlil qilish asosida quyidagi turlarga bo'linadi.³⁹

- Sotsial-ijtimoiy an'analar;
- -kasbiy, mehnat an'analari;
- Oilaviy-maiyshi va oilaviy-nikoh an'analari;
- Tabiat bilan bog'liq an'analar;
- Jismoniy tarbiya bilan bog'liq an'analar.

Bu an'analardan maishiy-oilaviy va oilaviy-nikoh an'analari biz o'rganayotgan muammoda muhim hisoblanadi. Milliy urf-odatlarimizning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimdan urf-odat va an'analarimiz yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda yosh avlod kamolotida katta ahamiyat kasb etgan. Milliy urf-odatlarimini o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi o'rnixususidagi ma'lumotlarni oilashanos olimlarning ishlari orqali ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

³⁸ Qodirov B.A. Troditionnaya pedagogicheskaya kultura uzbekskogo naroda: -Avtoref. diss...d.p.n. -M.: 1992, 33 s.

³⁹ Abdullaeva M. O'smirlarni oilaviy hayotga ma'naviy tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari. mavzusidagi p.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. T.: 2004.

Oilashunos olim A.Q.Munavvarov o'zbek xalqining yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy urf-odatlarimizning o'rni va ahamiyatini tadqiq qilgan ilmiy izlanish va risolalarida, boshqa sharq xalqlari kabi o'zbek xalqining ham farzandlarni tarbiyalashda, ularni oilaviy hayotga tayyorlashda ko'mak bo'ladigan, turli urf-odatlarimiz borligi, bularga turli marosimlar, hasharlar, "Kelin salomlari", turli o'yinlar va boshqa urf-odatlarimizni misol qilib keltirib o'tgan. Shuningdek, o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda o'zbekona urf-odatlarimizning, o'zimizga xos tarbiya usullarining mavjudligi bularning barchasi o'zbek xalqining farzandlar tarbiyasi borasida vaularni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga bog'liq tomonlarini tadqiqotchining bir qator ilmiy izlanishlarida uchratishimiz mumkin.⁴⁰

Pedagogika fanlari doktori M.Maxmudovaning "Yoshlarda oilaviy hayotga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish" mavzusidagi maqolasida, "Oila milliy qadriyatlar maskani hisoblanadi. Yoshlarni oilaga tayyorlash jarayoni har bir millatning madaniy va ma'naviy-ruhiy qadriyatlaridan hisoblanib, xususan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash insoniyat tarixida xalq ma'naviy takomilining eng ulug' va oliy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Har bir xalq va millat milliy an'analari tarkibida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Oilada oila an'analari va ularga nisbatan hurmat bilan qarash, oila an'alarini avlodlarga o'tkazish, oila an'alarida shaxs barkamolligi o'rni, oila an'alarida sog'lom turmush tarzi, sport, jismoniy tarbiya va jinsiy halollik masalalari, oilada bayramlarni nishonlash tartibi, oilaviy an'analarni saqlashga farzandlarni o'rgatish, oila va sayoxat, oila va o'z o'lkasi tarixi, milliy urf-odatlarini o'rgatish, oila an'alaridan farzand tarbiyasida unumli foydalanish" kabi muhim masalalarga to'xtalib o'tgan.⁴¹

Oilada va ta'lim jarayonlarida farzandlarni tarbiyalash va kamolga yetkazishda milliy urf-odatlarimiz bilan birga o'zbek xalq maqollari va ertaklarining ham o'rni kattadir. Jumladan, "Oltin olma-duo ol", "Odob bozorda

⁴⁰ Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi, -T.: O'qtuvchi, 1994-112b.

⁴¹ Maxmudova M. Yoshlarda oilaviy hayotga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Yoshlar ma'naviyati va sog'lom turmush tarzi toplami. T.: 2012. 102-104b.

sotilmas”, “Aql-Hasan, odob-Husandir”, ”Yaxshi bola-el ko’rki” va boshqa xalq maqollar farzandlar tarbiyasida qo’llaniladi. Shuningdek, o’smirlarni oilaviy hayotga tarbiyalash borasida buyuk allomalarimizning qimmatli fikrlari va ulkan ma’naviy merosi ham muhim ahamiyatga egadir.

O’zbek oilalarida azal-azaldan farzandlar tarbiyasiga, ayniqsa, o’smirlar tarbiyasiga va ularni oilaviy hayotga tayyorlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Bu borada tadqiqotchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlariga nazar solar ekanmiz, ularda asosan o’smir yoshdagi qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga to’xtalganini ko’ramiz. Kichik yoshdagi qiz bolalarga ular hali endigina 3-4 yoshga kirganidan boshlaboq, o’zini toza-ozoda saqlash, sochlarini parvarish qilish, kattalarga muloqot jarayonida vazminlik va boshqa sifatlarni shakllantirish maqsadida turli tarbiya usullari va milliy urf-odatlarimiz, turli tadbir va va mehnat jarayonlarida, oilada ertaklar orqali singdirilgan. Bu sifatlarning shakllanishi o’smir yoshga etib qiz bolalarning yangi hayot qurishlariga tarbiyalashga qaratilgandir.

Turli viloyat va hududlarning urf-odatlari va o’tkazadigan marosimlari turlichadir. Misol uchun ayrim viloyatlarda o’smir o’n uch, o’n to’rt yoshga to’lganda ularga muchal to’y o’tkazadilar. Bu marosim bir muncha boshqalaridan farq qiladi. Aynan muchal yoshi nishonlanayotgan o’smir o’sha kuni yangi libosda, chiroyli bo’lib kiyintiriladi. Chunki bu marosim o’smirlarni bolalikdan – balog’atga o’tganini anglatgan. Shuningdek, o’sha kuni balog’at yoshiga etgan o’smirga yaxshi tilaklar aytiladi, dasturxon tuzatilib, keksa kishilarning niyatlari, do’stu-dugonalari tilaklar bildiradilar.

O’smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy urf-odatlarimizdan keng foydalanishga so’ngi yillarda yanada chuqurroq e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda o’smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdek ma’suliyatli va mashaqqatli vazifalarni bajarishda oilada ota-onava oilaning boshqa a’zolari, ta’lim jarayonida o’qituvchilar tomonidan milliy urf-odatlarimizdan va an’analarimizdan oqilona

foydalanib, uni ham dars jarayonida mavzularga mos holatda qo'llash albatta yaxshi natija beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish o'rinliki, o'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda o'zbek xalqining o'z tarixiy tajribasiga egaligi, o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy urf-odatlar va an'analardan foydalanishi yuqoridagi muammolarni oldini olishga qaratilganligidan dalolat beradi. Bu tajribalar o'zbek xalqining mumtoz pedagogikamizning yo'nalishlaridan biridir. Hozirda bu tajribalardan foydalanish, oila qurish bo'sag'asida turgan o'smirlar tarbiyasida qo'llash, yurtimizda mustahkam va sog'lom oilalarning ko'payishiga asos bo'la oladi.

Ikkinchi bob yuzasidan xulosa

Sogʻlom va mustahkam oilalarda kamol topayotgan bolalarning maʼnaviyati ham yuksak boʻladi. Oila esa sogʻlom turmush tarzining asosi hisoblanadi. Buning uchun esa oilada sogʻlom maʼnaviy muhit hukumron boʻlishi, oila aʼzolarining bir-birlari bilan samimiy munosabatda boʻlishlari, ota-ona va farzandlarning oʻzaro hurmati, oʻzbek oilalarining farzand tarbiyasiga yondashuvida milliy urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz asosida oʻsmirlarni oilaviy hayotga tayyorlash muhim ahamiyatga egadir. Sogʻlom va baxtli oilada oʻsib ulgʻayayotgan farzandlar, jamiyat ravnaqi uchun oila mustahkamligi uchun oʻz maʼsuliyatini his qiladigan boʻlib voyaga etadi. Bunda esa oila maʼnaviy muhitining oʻrni katta. Bugungi kunda taʼlim muassasalarida, jumladan, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda oʻtiladigan “Oila psixologiyasi”, “Pedagogika” fanlarining oʻqitilishi muhim hisoblanadi.

Sogʻlom oilani shakllantirish uchun sogʻlom muhit, ota-ona munosabatlari, yoshlarni oilaga tayyorlash davrida ularning tibbiy, huquqiy, iqtisodiy va psixologik bilimlari saviyasini oshirish hamda reproduktiv madaniyatni shakllantirish ijobiy omillar hisoblanar ekan, buning zahirida kelajak avlod va genafond salomatligi yotadi. Oila qurayotgan yoshlarning kelajakda baxtli turmush kechirishlari koʻp jihatdan ularning salomatligiga bogʻliqdir. Nikohdan oldingi tibbiy koʻrikning yoʻlga qoʻyilishi, roʻy berishi mumkin boʻlgan koʻngilsizliklarni oldini olishda juda muhimdir. Nikohlanuvchilarni tibbiy koʻrikdan oʻtkazishdan koʻzda tutilgan asosiy maqsad-irsiy va nasliy kasalliklarning oldini olish, oilada sogʻlom muhitni qaror toptirishdir.

Ushbu bobda oʻsmirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni, shakl va meyorlari ishlab chiqilgan. Dars jarayonida oʻsmirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmuni, mohiyati, oʻsmirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda tarbiyaviy tadbirlarning imkoniyatlari hamda oʻsmirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy urf-odat va anʼanalardan foydalanish yoʻllari yoritilgan.

III BOB. O‘SMIRLARNI OILAVIY XAYOTGA TAYYORLASH YUZASIDAN O‘TKAZILGAN TAJRIBA- SINOV ISHLARINING NATIJALARI VA SAMARADORLIGI

3.1.O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashga oid o‘tkaziladigan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish

O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish uchun tajriba-sinov 1-son Samarqand pedagogika kollejida tajriba-sinov ishlarini o‘tkazdik. Tajriba-sinov ishlari alohida tuzilgan dastur asosida olib borildi. Tajriba-sinov uchun tarqatma va ko‘rsatmali materiallar tayyorlandi, yetarlicha tahlil qilindi, ko‘paytirildi, o‘quvchilarga, o‘qituvchilarga, ota-onalarga tarqatildi. Tajriba-sinov ishlarida uch yuzdan ortiq kollej o‘quvchilari, 30 nafarga yaqin o‘qituvchilar, kollej rahbariyati va 20 dan ortiq ota-onalar ishtirok etdilar.

Bunda quyidagi shakllardan foydalanildi:

-oilada har ikki jinsning o‘zaro munosabatlari va oiladagi o‘rni, ota-onalarning farzandlarini oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha bilimlar berish;

-mashg‘ulotlarda mavzuga oid turli matbuot materiallari, badiiy adabiyot va badiiy asar namunalari, buyuk mutafakkirlarning ta’limiy-axloqiy bilimlarga oid asarlaridan parchalar, video-lavhalardan foydalanish;

-mashg‘ulotlarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish;

-seminar mashg‘ulotlarda o‘smirlar tarbiyasiga oid suhbatlar, baxs va munozaralarga ota-onalar, mutaxassislar va mahalladan bir guruh faollarni ishtirokini ta’minlash;

-aholi o‘rtasida so‘rovnomalar, suhbatlar o‘tkazish va ularni tahlil etish;

-o‘smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda tajriba almashish maqsadida katta avlod vakillari (bobo, buvi) va ota-onalar bilan uchrashuvlar o‘tkazish;

Ta’lim jarayonida olib borilgan bu shakllar, bevosita o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda bir tomondan ularni oilaviy hayotga pedagogik jihatdan tayyorlasa, ikkinchi tomondan esa, oilaviy tarbiyada avlodlar tajribasidan

foydalanish, milliy urf-odatlarimiz va an'analarimizni o'rganish ularga hurmat va milliy an'analarimizni davom ettirishga olib keladi.

Shu boisdan, biz "Oila psixologiyasi" fanini o'rganishda uning "ichki" va "tashqi" imkoniyatlaridan foydalandik va bu holat o'smirlarni oilaviy hayotga pedagogik va psixologik jihatdan tayyorlashga imkon beradi.

"Ichki" imkoniyatlarga o'smir yoshlarning yosh va psixologik xususiyatlari, oila va oilaviy hayot, nikoh, oila a'zolari o'rasidagi munosabatlari ichki talablar kiritilib, ularning atrofidagi kishilarni, o'z-o'zini anglashi, ularni tushuna borishi asosida oilaviy hayotga tayyor bo'la borishga ichki bir yo'nalish berishdan iborat edi.

Mazkur mexanizimlar ta'lim jarayoniga kiritilib "tashqi" omillar, ya'ni kollej faoliyatini oila, mahalla va boshqa muassasalar bilan aloqa bog'lash vazifasini qo'yadi.

Respondentlarga quyidagi materiallar tarqatildi:

1. Samarqand 1-son pedagogika kolleji o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning shakllanganlik darajaini o'rganish so'rovnomasi; (1- bosqich o'quvchilari uchun)

2. 1. Samarqand 1-son pedagogika kolleji o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning shakllanganlik darajaini o'rganish so'rovnomasi; (2- bosqich o'quvchilari uchun)

3. 1. Samarqand 1-son pedagogika kolleji o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning shakllanganlik darajaini o'rganish so'rovnomasi; (3- bosqich o'quvchilari uchun)

4. 1. Samarqand 1-son pedagogika kolleji o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning shakllanganlik darajaini o'rganish so'rovnomasi; (o'qituvchilar uchun)

5. 1. Samarqand 1-son pedagogika kolleji o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning shakllanganlik darajaini o'rganish so'rovnomasi; (ota-onalar uchun)

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda kollejdagi o‘quv-tarbiyaviy jarayon kuzatildi, o‘quvchilarning hujjatlari, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarning ilmiy metodik ta‘minoti, pedagogika kollejining ish yuritish hujjatlari bilan tanishildi, dars jarayonlari kuzatildi, tahlil qilindi. Sinov darslari o‘tkazildi. Suhbatlar, uchrashuvlar uyushtirildi.

O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashni pedagogik jihatlarini pedagogika kollejining o‘quvchilarida o‘rganish uchun, 1-bosqichlar uchun alohida, 2-bosqichlar uchun alohida, uchinchi bosqichlar uchun alohida, o‘qituvchilar va ota-onalar uchun alohida ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda so‘rovnomalar tuzildi. Tadqiqotdan ma‘lum bo‘lishicha o‘quvchilar “O‘smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda nimalarga e‘tibor berish kerak?” degan savolga to‘liq javob bera olmasdan, uning ba‘zi ko‘rinishlarini bilishar ekan.

O‘quvchilarning javoblarining tahlili

Javoblar	“O‘smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda nimalarga e‘tibor berish kerak?”					
	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	1-bosqich		2-bosqich	3-bosqich
Qoniqarsiz, noto‘g‘ri	40	23	34	12	9	8
Qoniqarli, to‘liq emas	8	17	46	16	15	14
Yaxshi (to‘liq)	4	10	20	5	5	7
Jami	52	50	100	29	29	30

Tajriba guruhlarida o‘quvchilarning asosiy qismi qoniqarsiz javob berganliklarining asosiy sababi o‘quvchilar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarning, an’anaviy tartibda olib borilganligi, o‘qituvchilar o‘quv rejalaridan chetga chiqa olmayotganliklarini ko‘rsatadi. Ushbu anketamizning “Siz “Oila psixologiyasi” fanidan oilaning qanday vazifalarini o‘rgandingiz?” –degan savolga tajriba-sinov va nazorat guruhlarida o‘quvchilar quyidagicha javob berdilar:

”Siz “Oila psixologiyasi” fanidan oilaning qanday vazifalarini o‘rgandingiz?” –savolga javoblar tahlili

№	Javoblar	Siz “Oila psixologiyasi” fanidan oilaning qanday vazifalarini o‘rgandingiz?				
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	1-bosqich	2-bosqich	3-bosqich
1	Qoniqarsiz, Noto‘g‘ri	28	25	12	6	9
2	Qoniqarli, To‘liq emas	17	21	13	17	15
3	Yaxshi(to‘liq)	7	14	6	6	7
4	Jami	52	60	31	29	31

Tajriba-sinov guruhlarida berilgan savollarga nazorat guruhlaridan ma’lum farq 57,3 foiz ijobiy natija berdi. Sababi, O‘smir yoshlarga oila va nikoh munosabatlari haqida ma’lumot berishimiz. So‘ngra ularning “Umumiy pedagogika”, “Oila psixologiyasi” darslaridan muayyan tushunchalar berilganligi orqali erishildi.

Pedagogika kolleji o‘quvchilarining oila, nikoh, oilaviy munosabatlar bo‘yicha fikr –mulohazalarini o‘rgandik. So‘rovnomada 30 nafardan ortiq kollej o‘qituvchilari ishtirok etdi. “Bugungi kunda o‘smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda ma’naviy-axloqiy, iqtisodiy-ijtimoiy psixologik bilimlarni shakllantirishga ehtiyoj bormi”-degan savollarga ko‘proq “Mustaqillik yillarida respublikamizdagi mustahkam, sog‘lom oilalarni barpo qilishga ehtiyoj ortib bormoqda”-degan javoblarni “to‘g‘ri” javoblar sirasiga kiritdik. Ehtiyoj o‘rta darajada, “Umuman foydalansa bo‘ladi” kabi javoblarni “noaniq”javoblar sirasiga kiritdik.

“O‘smirlarni oilaviy hayotga ayyorlashdagi bugungi holatidan qoniqayapsizmi?!-degan savolga ”Ha” deb javob berganini “Noto‘g‘ri”, “Bilmayman” degan javoblarni “Noaniq”, “Yo‘q”, ”Qanoatlanarli emas”deb javob berganlarni “To‘g‘ri”javoblar sifatida belgiladi. Sababi, o‘smirlarni oilaviy

hayotga tayyorlash uchun 2-3 soat jami 8-10 soat vaqt ajratilgan. Bizningcha o‘smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun ajratilgan soatlar etarli emas, agar o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi fanlarni 10-12 soat vaqt ajratilganda yetarli bo‘ladi.

Tadqiqot olib borish jarayonida pedagogika kollejining 2-3- bosqich o‘quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashda quyidagi didaktik vositalarning imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etdik:

“Pedagogika”, “Oila psixologiyasi” darslarida o‘smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oila va nikoh tunuchalarining mazmuni aks ettirilgan materiallardan foydalanilgan holda o‘tish;

Darsdan va auditoriyadan tashqari o‘tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar rejasida o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash g‘oyalari aks ettirilgan mavzularni ko‘rsatish;

Pedagogika kolleji o‘quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashda darsdan va auditoriyadan tashqari tarbiyaviy soatlarning imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanish lozim.

3.2.O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari va tahlili

Magistrlilik dissertatsiyasini olib borishda yuqorida keltirilgan tajriba-sinov materiallari, so‘rovnomalar, suhbat varaqalari, test savollari va ularga berilgan javoblarni umumlashtirib, tajriba-sinov ishlarida qatnashgan o‘quvchilarning berilgan savollari, qo‘yilgan muammolarning o‘zlashtirish darajasini aniqladik.

Yoshlarning oila deb atalmish muqaddas dargohda yaxshi yashab ketishlari ko‘p jihatdan ularning oilaviy hayotga jismoniy, ma’naviy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik tayyorgarlik holatlariga ham bog‘liq. Samarqand 1-son pedagogika kolleji o‘quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning shakllanganlik darajaini aniqlash uchun quyidagi testlar(2-3 bosqich talabalari uchun)dan foydalandik:

1.Turmush qurganingizdan keyin o‘z kasbingizni saqlab qolasizmi?

a) 1-farzand tug‘ilgach, ishga qaytaman;

- b) bunga astoydil harakat qilaman;
- d) yo‘q, mening ishim qoniqtirmaydi.

1. Farzand ko‘rishni xohlaysizmi?

- a) eng kami 2 ta;
- b) yo‘q;
- d) turmush o‘rtog‘im xohlagani uchun.

2. Davralarda turmush o‘rtog‘ingiz boshqa ayol bilan qiziqayotganini sezib qolsangiz nima qilar edingiz?

- a) boshqa kishiga yoqishga harakat qilaman;
- b) janjal chiqaraman;
- d) bu qilg‘i meni ajablantiradi, lekin men sezdirmaslikka harakat qilaman.

3. Siz rashkchimisiz?

- a) ha;
- b) unchalik emas;
- d) o‘z turmush o‘rtog‘imga ishonaman deb o‘ylayman.

4. Bo‘lajak yangi oilangizda janjallashib qolganda kim past keladi?

- a) men;
- b) u;
- d) bir marta, u bir marta men.

5. Siz shirin taomlar pishirishni yaxshi bilasizmi?

- a) bunday bo‘lish uchun o‘qib olish kerak;
- b) faqat bir necha taomlarnigina;
- c) pishirishni juda-juda sevaman.

6. Bo‘lajak turmush o‘rtog‘ingizdan yashiradigan sirlaringiz bormi?

- a) yo‘q;
- b) ba‘zan;
- d) ba‘zi bir narsalar borki, men ular haqida aytishga uyala- man.

8. Sizning turmush o‘rtog‘ingiz futbol ishqibozi bo‘lsa-chi?

- a) bu qiziqishni yo‘qotishga harakat qilaman;

- b) u tomoshaga ketganida men o‘z sevgan mashg‘ulotim bilan shug‘ullanaman;
- d) o‘zim ham ishqiboz bo‘lib olaman.

7. Ota-onangiz nikohi qanday?

- a) chidasa bo‘ladigan;
- b) a’lo darajada;
- c) ajrashishgan.

8. Sizningcha turmush o‘rtog‘ingiz ishga sho‘ng‘ib ketishi mumkinmi?

- a) ha;
- b) uning ishlari bilan qiziqmayman;
- c) mansab hayotda uncha kerak emas.

9. «Moda» degan tushuncha sizlarda har xil qarashlar bo‘lsa, siz nima qilgan bo‘lardingiz?

- a) yon berar edim;
- b) rozi bo‘lardim;
- d) qarashlarini o‘zgartirishga harakat qilardim.

12.«Sinash nikohlari»ga munosabatingiz qanday?

- a) rozi bo‘lmas edim;
- b) bir-birlarini yanada yaqinroq o‘rganish deb tushunaman;
- d) bu haqda biron nima deya olmayman.

13. Sizningcha ayol yoki erkak kishi turmush qurishdan oldin boshqa erkak yoki ayollar bilan uchrashib yurgan bo‘lsa, yaxshimi yoki yomonmi?

- a) menimcha bu kerak;
- b) yo‘q;
- d) vaziyatga qarab.

14. Turmush o‘rtog‘ingiz boshqa ayol bilan uchrashayotganini bilib (sezib) qolsangiz, kechirar edingizmi?

- a) ha;
- b) yo‘q;

d) vaziyatga qarab.

Test natijalarini baholash

Savol javob	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
a	2	3	2	1	2	1	3	1	2	1	3	3	2	2
b	3	1	1	2	1	2	2	3	3	2	2	1	1	1
d	1	2	3	3	3	3	1	2	1	3	1	2	3	3

Test natijalari tahlili:

14–23 ball. Balkim vaqt o'tishi bilan siz hayotga bo'lgan nuqtayinazaringizni, dunyoqarashingizni o'zgartirasiz. Hozir-cha sizlarning oralaringizda nizolar bo'lib turadi, chunki siz o'zingizni bo'lajak turmush o'rtog'ingizga o'rgana olmaysiz. Asosan sabr-toqatli bo'ling, kelgusida o'z turmush o'rtog'ingizga yon berishga odatlanishga harakat qiling.

24—32 ball. Siz uchun turmushga chiqish biroz ertaroqdir. Bu borada biroz yetilishingiz lozim. Balki bu boradagi, ya'ni o'zingizning turmushga tayyorgarligingiz borasidagi ikkilanishingiz bejiz emas. Umuman nikoh har doim ham ajralish emas. Siz turmush o'rtog'ingizni tushunasiz. Balki hayotda sizga hayotiy tajriba, o'z kuchingizga ishonch yetishmayotgandir. Agar o'z xatti-harakatlaringizni nazorat qilib borsangiz, sizdan yaxshi turmush o'rtoq chiqishiga imkoniyatingiz bor. Ko'proq o'qing, bu bilimlar ko'proq sizga kuch qo'shadi, o'zingizni kasb-hunarga yo'naltiring — bu sizning mustaqil bo'lishingizga yordam beradi.

33—47 ball. Sizga «ha» degan odam baxtlidir. Sizning nikohingizda qora bulutlar paydo bo'lmaydi (Sizning ishtirokingizda, ya'ni siz tufayli emas, albatta). Lekin bu sizning qiziqishlaringizdan voz kechishingizni anglatmaydi. Siz juda aqlli, farosatli odamsiz. Bu fazilatlaringiz turmush o'rtog'ingizning shaxsiy qiziqishlariga yordam beradi. Shuning bilan birgalikda Siz o'z mustaqilligingizga erishasiz.

96 to‘g‘ri javob hisobida	Tajriba boshida	Tajriba davomida	Tajriba oxirida
To‘g‘ri javoblar soni	20	62	92
Shakllanganlik darajasi % hisobida	20,8	64,5	95,8

96 to‘g‘ri javob hisobida	Tajriba boshida	Tajriba davomida	Tajriba oxirida
To‘g‘ri javoblar soni	29	56	93
Shakllanganlik darajasi % hisobida	30,2	58,3	96,8

96 to‘g‘ri javob hisobida	Tajriba boshida	Tajriba davomida	Tajriba oxirida
To‘g‘ri javoblar soni	48		92
Shakllanganlik darajasi % hisobida	50	64,5	95,8

Tadqiqot jarayonida test orqali Pedagogika kolleji o‘quvchilarining, oila, nikoh, oilaviy munosabatlarni, oilada ota-ona va farzandlarning o‘zaro burch va vazifalari, nikoh oldi omillari kabi tushunchalarni qanday o‘zlashtirib olganliklarini aniqlashga harakat qildik. O‘tkazilgan tajriba-sinov natijalariga ko‘ra o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda pedagogika kollejidagi “Oila psixologiyasi” fanining imkoniyatlaridan etarli darajada foydalanishni tizimli yo‘lga qo‘yish ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishiga ishonch hosil qildik.

Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarimiz o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga nazariy bilimlarga amaliyot bilan bog‘lashga yordam beradi. Tajriba-sinov uchun tayyorlangan o‘quv materiallarimiz tushunarli bo‘lgani sababli o‘quvchilarning oilaviy hayot, nikoh tushunchalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari shakllandi.

Uchinchi bob yuzasidan xulosa

Samarqand 1-son pedagogika kollejida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari biz nazarda tutgan muammoni hal etishga yordam berdi. Tajriba-sinov darslarida va o'qituvchilar darslarni faol va ta'limning noan'anaviy metodlaridan foydalanib olib bordilar.

Tadqiqot jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor berish keraligi aniqlandi:

-o'smir yoshdagi yigit va qizlarni nikoh qurish va erta oila qurishning oldini olish uchun ularda ma'lum bilim va tushunchalarni shakllantirish;

-buning uchun o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash kollejlarda tegishli fanlar bilan birga kollejdagi boqa fanlar tarkibiga ham kiritish;

-o'smirlarga qarindoshlar o'rtasidagi nikohning salbiy oqibatlarini haqida ma'lumotlar berish va shu mazmundagi video roliklarni taqdim qilish;

-o'smirlarni giyohvanlikka qarshi kurashish va sog'lom turmush tarafdori bo'lishga chorlash,giyoxvandlikning salbiy oqibatlarini tushuntirish;

-o'smirlarni bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish va o'smirlarda kitobga bo'lgan muhabbatni oshirish;

-o'smirlarni ma'lum bir kasb-hunarni egallashlari ularning o'zlarining mustahkam va baxtli hayolari garovi ekanligini tushuntirish va ularning ongiga etkazish;

-ta'lim jarayonida bilim olish bilan birga,yuksak ma'naviyatli avlodni kamol toptirish.o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning asosiy tamoyillari sifatida ilgari surildi.

Bunday tamoyillar bugungi kunda sog'lom fikrlaydigan,ma'naviy yuksak avlodni kamolga etkazish,ularni kelgusida mustahkam sog'lom ma'naviyatli oila qurishlariga tayyorlashga ham bog'liqdir. Shunday ekan tadqiqotchi ko'zlagan maqsad ilmiy asoslangan holatda o'z yechimini topganligi bilan muhimdir.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Respublikamizning ravnaqi uchun xizmat qiladigan oilalarning mustahkam bo'lishi ko'p jihatdan bugungi kunda yangi oila qurayotgan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga bog'liqdir. Shu boisdan ham hozirga kunda nikoh, oila munosabatlariga a'lohida e'tibor qaratilmoqda. Nosog'lom muhitda yashaydigan noto'liq oilalarni imkon darajasida kamaytirishga qatnashgan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Oilalardagi psixologik muhitni yaxshilash, oila a'zolari o'rtasida o'zaro samimiy bo'lishlari oilaning muqaddas ekanligiga, uning qo'rg'onlarini mustahkamlash lozimligi, oilada tarbiya topayotgan farzandalar tarbiyasiga ta'sir qiluvchi usul va metodlarni qo'llash bilan bog'liq samarali ishlar bajarilmoqda. O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi keyingi yillarda o'rganilishi lozim muammolardan biriga aylanib qoldi.

Darhaqiqat, hozirga zamon, fan-texnika taraqqiyoti, barcha sohalardagi erishilayotgan yutuqlar va yangi qo'yilayotgan talablar, barcha sohalarning ishtirokchisi va yaratuvchisi bo'lgan insonlar oldiga ham bir qancha talablarni qo'yimoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, bevosita jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etib qolmay, kishilarning o'zaro munosabatlariga, ularning munosabatlarini biroz cheklab qo'yilganligiga sabab bo'lmoqda. Buning natijasida ayrim urf-odatlarimizning unutilishiga olib kelinmoqda. Shu sababli odamlar ruhiy olamida zo'riqlar, emotsional holatlarida o'zgarishlar bo'lishiga olib kelmoqda. Ana shunday murakkab bir davrda o'smirlarni oilaviy hayot to'g'risidagi bilimlari etishmayayotgani, buning natijasida oilalarda turli nizolarning yuzaga kelishi va oilaviy ajrimlarga sabab bo'lmoqda.

O'zbek xalqining tarixiga nazar tashlasak, qadimda yoshlar 17-18 yoshda oila qurishgan. Shu yoshda oila qursalarda ular ma'naviy tomondan oilaviy munosabatlarga tayyor bo'lganligi sababli, oilaviy nizolar ko'p bo'lmagan, agarda shunday holatlar kuzatilganda ota-onalar bilan birgalikda muammoga echim topganlar. Bu jarayonda yoshlar ham milliy urf-odatlarimizga ham hurmat bilan qarashgan.

Hozirgi globallashuv davrida yoshlar ancha erta 12-13 yoshda jinsiy balogʻatga etmoqda. Bugungi kunda qizlar 18-19 baaʻzan undan ham erta oila qurishmoqda. Oila qurayotgan yigitlarning yoshiga eʻtibor qaratsak 21-22 yosh ekenligini koʻramiz. Ming afsuski bu ikki jins vakillari fiziologik jihatdan oila qurishga tayyor boʻlsalarda, ammo ular oila qurishga, na psixologik-ijtimoiy, na pedagogik va na iqtisodiy jihatdan tayyor emaslar.

Bugungi kunda jamiyat esa oilalarning oldiga bir qator muhim vazifalarni qoʻymoqda. Zamon talablaridan va jamiyat ehtiyojlaridan keli chiqib yoshlarni oilaviy hayotga har tomonlama yuksak darajada tayyorlash bajarilishi lozim boʻlgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mamlakatimiz oʻz mustaqilligini qoʻlga kiritganidan boshlab, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga alohida eʻtibor qaratilayotganini shu xususidagi davlat dasturlarini qabul qilinganidan ham anglash mumkin.

“Oila” dasturi, “Sogʻlom avlod” davlat dasturi, “Ona va bola” davlat dasturlarining ishlab chiqilganligi ushbu masala bugungi kunda davlat siyosati darajasiga koʻtarilganidan dalolat beradi.

Bunday harakatlarning mazmun-mohiyatida oʻsmirlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi yotadi. Chunki oʻsmirlar fiziologik jihatdan tayyor boʻlib mustaqil oila qurishlari ularning hayotida juda koʻp muammolarga duch kelishlariga sabab boʻladi.

Shu bois, bu masalaga faqatgina oilada emas, taʻlim muassasalarida jumladan pedagogika kollejlarda ham oʻsmirlarni oilaviy hayotga tayyorlashga eʻtibor qaratilishi bu boradagi ishlar samarasini oshiradi. Buning uchun esa, oilada ota-onaning pedagogik-psixologik bilimlarga egaligi ham muhimdir. Chunki oilada tarbiya topayotgan oʻsmirlarni eng avvalo oilada oilaviy hayotga tayyorlash lozimdir. Ularga oilaning, nikohning muqaddasligi, oila qurmoqchi boʻlgan yoshlar oilada oʻzaro bir birini hurmat qilishi va boshqa oila aʻzolari bilan samimiy munosabatlarni oʻrnatishi lozimligini, oilada gigiyenik tarbiyani, oila salomatligi borasida maʼlum darajada bilim va tushunchalarga ega boʻlishlari, oilada sogʻlom

psixologik muhitni qaror toptirishni bilishlari zarurdir. Bunday bilim va ko'nikmalar ta'lim muassasalarida "Oila psixologiyasi" va boshqa turkum fanlar negizida o'rgatilishi juda muhimdir. Pedagogika kolleji o'quvchilari ongiga oila qurayotgan o'smirning axloqiy-ma'naviy sifatlarni singdirish bilan bir qatorda, ularda oila qo'rg'onini mustahkam bo'lishi bugungi kunda ta'lim-tarbiya topayayotgan o'smirlarga ko'p jihatdan bog'liq ekanini tushuntirish, dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda o'smirlarda uchraydigan turli oila qurish bilan bog'liq muammolarni o'zida aks ettirgan tadbirlar, seminar-treninglarni tashkil qilish lozimdir. Ta'lim jarayonida guruh ta'sirining o'rnini hisobga olgan holda guruhlararo mutaxassislar va psixolog, pedagog o'qituvchilar bilan suhbatlarni tashkil qilishlari, bu suhbatlarda aynan o'smirlarning ishtirokini ta'minlash masalasiga aloxida e'tibor qaratish lozimdir.

Hozirgi kunda oilalarda va ta'lim muassasalarida tarbiya topib, voyaga etayotgan yigit-qizlar ertangi kunning egalaridir. Ularning mustahkam va baxtli oila qurishlari yurt ravnaqiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ta'lim maskanlarida, maktablarning yuqori sinf o'quvchilariga va litsey-kollej o'quvchilariga oila ma'naviyatini tarkib toptirish, oilaning muqaddas ekanligi, oilada ota-onaning o'rnini va farzandlar bilan o'zaro munosabati, oilada farzandlarning ma'naviy-axloqiy, gigiyenik va psixologik jihatdan tayyorlash masalalariga e'tibor qaratish muhimdir.

O'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida o'zbek xalqi o'zining milliy urf-odat va an'analari bor. Bunday milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash voyaga etayotgan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda tarbiya jarayonida qo'llaniladi.

O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida bir qancha pedagog, psixolog olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Tadqiqotchi olimlardan A.Q.Munavvarov, O.Musurmonova, M.Inomova, G'.B.Shoumarov, M.Maxmudova, M.Abdullayevalar tomonidan o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga doir asarlar, risolalar va uslubiy qo'llanmalar ishlab

chiqilgan. Olimlarning ilmiy izlanishlarida, asosan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda sogʻlom fikrlaydigan, maʼnan yetuk, jismoniy baquvvat avlodlarni voyaga etkazish borasida koʻplab fikrlarni bayon qilganlar. Shuningdek oʻsmirlarni oilaga tayyorlashda pedagogika kollejlari oʻtiladigan “Oila psixologiyasi”dagi mavzular yuzasidan oʻsmirlarni qiziqtirgan mavzularda suhbatlar, keksa avlod vakillari bilan uchrashuvlar, oilaviy hayotga doir mavzularda seminar-treninglar oʻtkazish maqsadga muvofiqdir. Bu borada milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va anʼanalarimizdan foydalanish keng imkoniyatlarni yaratishga yordam beradi. Milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizni dars jarayonida qoʻllashni yoʻlga qoʻyish, dars mavzularini hayotiy misollar bilan bogʻlab, badiiy asarlardan lavhalar keltirib rolli oʻyinlardan foydalanish ham muhimdir. Shu sababli maʼruzalar davomida amaliy mashgʻulotlarda koʻrgazmali vositalardan, test va soʻrovnomalardan foydalanildi.

Pedagogika kollejlari oʻtiladigan bir guruh fanlar hayotning barcha jabhalarida oʻsmirlarni oilaviy hayotga tayyorlash imkoniyatlarni mavjudligi, mavzularda oilaning muqaddas ekanligi, oilada ota-ona va farzandlar oʻrtasidagi mavzularning yoritib berilganligi oʻsmirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda yaxshi natijalarni berishiga ishonch hosil qilindi.

Oʻzbek oilalarida bolalar, mehnatsevarlik, insonparvarlik, halollik, mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, kamtarlik va jamoatchilik fikrini hurmat qilish kabi milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash yoshlarning keyingi hayotida kerakli koʻnikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqotimiz asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Oʻsmirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oʻzbek xalqining oʻziga xos ming yillar davomida saqlanib kelinayotgan milliy qadriyatlarimizning mavjudligi bu anʼanalar barcha oilalarning mustaqilligini taʼminlashda xizmat qisa, yangi oila qurish arafasida turgan oʻsmirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

2. O‘smirlarni oilaviy hayotga pedagogik jihatdan tayyorlashda ularga oilaning muqaddasligi, ota-onaga hurmat, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi burch va majburiyatlar, oilada sog‘lom psixologik muhitni yaratish, oilaviy munosabatlarda odob-axloq me‘yorlariga rioya qilish, oilaning urf-odat va an‘analariga hurmat bilan qarash, oilada mehnat tarbiyasi xususidagi bilim ko‘nikmalarni berish muhimdir.

3. Yosh avlodni aynan o‘smir yoshga etganda oilaviy hayotga tayyorlash, ularda aynan shu davrda fiziologik yani jinsiy tomonlama oila qurishga tayyor bo‘ladi. Ammo o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularning iqtisodiy, siyosi, ma‘naviy-huquqiy, pedagogik-psixologik bilimlarni egallashi juda muhim sanaladi.

4. O‘smirlarni oilaviy hayotga pedagogik jihatdan tayyorlashda ta‘lim muassalaridagi dars jarayonlarining o‘rni kattadir. Aynan dars mashg‘ulotlarida o‘smirlarga tegishli pedagogik-psixologik bilim va tushunchalar beriladi. Ularni pedagogik jihatdan dars jarayonlarida oilaviy munosabatlar, nikoh tushunchalari, oilada sog‘lom ma‘naviy muhitni qaror toptirish, milliy an‘analarimizga hurmat tuyg‘usini shakllantirishda xizmat qiladi.

5. O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida pedagogika nazariyasi va amaliyotida bir qancha yutuqlarga erishilgan. Bu borada “Oila psixologiyasi”, “Pedagogika” va boshqa turkum fanlarning o‘quv rejaga kiritilishi, mamlakatimizda farzandlarni kamolga yetkazish bo‘yicha davlat dasturlarining qabul qilinishi bu boradagi muammolarning yechimini topishga ijobiy hal etishga imkoniyat yaratdi.

6. O‘tkazilgan turli seminar-mashg‘ulotlarda pedagogika kolleji o‘quvchilarining oila haqidagi bilim va tushunchalari savol-javoblar, turli referatlar orqali o‘rganildi va baholandi.

7. O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash dars jarayonida turli yangi pedagog texnologiyalaridan, metodlaridan, mavzu mazmuniga doir asarlar,

matbuot materiallari hamda keksa avlod vakillari tajribalari bilan ko'rgazmali vositalaridan foydalanish sasarali natijalarni beradi.

8. O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ular duch keladigan fiziologik, pedagogik, psixologik, tibbiy, huquqiy muammolari yuzasidan maxsus mutaxassislar hamkorligida (Psixolog, ginekolog, terapevt, huquqshunos) uchrashuvlar o'tkazish juda o'rinlidir.

9. O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oila, ta'lim muassasalari va mahalla hamkorligini yo'lga qo'yish va mahallalarda turli mavzularda yoshlarga taaluqli mavzularda davra suhbatlarini tashkil etishni yo'lga qo'yish yaxshi samarali natijalarni beradi.

10. Tadqiqot ishimizning tajriba-sinov ishlarini Samarqand 1-son pedagogika kolleji talabalarida o'tkazilganligi va tadqiqotimizda ilgari surilgan ilmiy farazning to'g'riligi va tadqiqot ishimizga mosligini tasdiqlaydi.

Keltirilgan xulosalarga tayanib o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligini oshirishda quyidagilarni tavsiya etamiz:

- o'smir yoshdagi yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ulada nikoh oldi omillari, erta nikohning va oila qurishning salbiy oqibatlari haqida va oila qurishda iqtisodiy, ma'naviy, huquqiy tushunchalar to'g'risida tasavvurlarga ega qilish;
- o'smirlarni oilaviy hayotga pedagogik-psixologik jihatdan tayyorlash masalasida ta'lim muassasalarida, ayniqsa, litsey va kasb-hunar kollejlarida "Oiala psixologiyasi" fanidan tashqari boshqa fanlarning tarkibiga kiritish;
- ommaviy axborot vositalarida va milliy telekanallarda o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga oid turli qiziqarli ko'rsatular, video roliklarni tayyorlashni yanada kuchaytirish;
- o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularni qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarni salbiy oqibatlaridan ogox qilish va bunday nikoxlarni oldini olishga qaratilgan tadbirlarni dars jarayonlarida va darsdan tashqari mashg'ulotlar rejasiga kiritish;

- o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularning biror-bir kasb-hunarni egallashi o‘zlarining mustahkam va baxtli turmushi garovi ekanligini o‘smirlar ongigi yetkazish;
- oilada va ta’lim jarayonlarida o‘smirlarning bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanish va ularda oilaparvarlik, mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish;
- “Oila psixologiyasi” fanining o‘quv rejasidagi soatlar miqdorini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida keltirilgan xulosa va tavsiyalar o‘smirlarni oilaviy hayotga pedagogik jihatdan tayyorlashda muhim bo‘lib, ularning amalga oshirilishi mamlakatimizda mustahkam va sog‘lom oilalarning soni ortishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2008. -40 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”//Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997. -32-61 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi” Qonuni//Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997. -20-29 b.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovardmaqsadimiz.T.:O‘zbekiston,2000 28-bet.
5. Karimov I.A.Yangi tafakkurga keng yo‘l//Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo‘lida,T: o‘zbekiston,1998,11 b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch-T:.”Ma’naviyat”,2008-52-53b.
7. Asosiy maqsadimiz-yurtimizda erkin va obod farovon hayot barpo etish yo‘lini qatbiyat bilan davom ettirishdir.O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 15 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi.O‘zbekiston ovozi,2007,8-dekabr.
8. “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning so‘zlagan nutqi. Zarafshon gazetasi 2017 yil 17-iyun 77-son, 1-sahifa.
9. Ona va bola davlat dasturi to‘g‘risida.Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 5-fevral № 68 qarori 75-b

II. Asosiy adabiyotlar

1. Alimov Usmonxon.Oilada farzand tarbiyasi.-T.: 2014 60-63 b.
2. Alimetov N.Sh.Pedagogika savollar va javoblar: O‘quv qo‘llanma. T.: 2001,201 b.

3. Alimetov N.Sh. O'quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish. O'qituvchilar uchun qo'llanma. Chimkent Yu.Kaz. SITI, 1993, 90 b.
4. Amir Temur o'g'itlari (to'plam). Tuzuvchilar: Ahmedov B. Aminov A., T.: Navro'z,1992.64b.
5. Ashirov.A. O'zbek milliy mentaliteti xaqida ba'zi mulohazalar.»O'zbek xalqining kelib chiqishi:ilmiy-metodik yondashuvlar,etnologiyasi va etnik tarix».:T:2004,54 bet
6. Asqarov A.O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi.T.:»O'zbekiston»2015.546-547 b.
7. Aripova G. Oila fuqorolik jamiyati institutining muhim bo'g'ini sifatida o'smirlarda tolerantlik tafakkurni shakllantirish omili.Sog'lom avlod – fuqorolik jamiyati poydevori.T.:»Fan va texnologiya» 2013,56-57b.
8. Azarov Yu.P. Oila pedagogikasi. Qayta ishlangan, to'ldirilgan ikkinchi nashrdan tarjima. T. “O'qituvchi”, 1998 yil, 272 b.
9. Axloq-odobga oid hadis namunalari. T.: Fan, 1990, 172 b.
- 10.Ковалев С.В. Психология семейных отношений. М.: Педагогика. 1987. 159-с.
- 11.Культура семейных отношений. М.: Знание, 1985. 176-с.
- 12.Махмудова М.Ушlarda oilaviy hayotga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish.Yoshlar ma'naviyati va sog'lom turmush tarzi toplami.T.:2012.102-104b Milliy istiqlol g'oyasi:asosiy tushunchalar va tamoyillar.-T.: “O'zbekiston”,2000.80 b.
- 13.Mardonova G. Nur to'la uy. T.: Mehnat, 1992, 98 b.
- 14.Ming bir savolga psixologning ming bir javobi. YUNESKO,YUNFPA loyixasi asosida/G'.Shoumarov taxriri ostida.T.:Mehnat,2000,192 b.
- 15.Mirenskiy B.A. Oila va o'smir. T.: O'qituvchi, 1991, 48 b.
- 16.Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi,-T.:O'qituvchi,1994, 112b.

17. Musurmonova O. Oila ma'naviyati milliy g'urur, T.: O'qituvchi" 1999, 22-23 b.
18. Musurmonova O., A.Qirg'izboev, D.Sharipova,O.Jamoliddinova, S.Yo'ldoshova, Ma'naviy barkamol insonni shakllantirish-jamiyat taraqqiyotining asosi.-T.:”Fan va texnologiya”2012,41-42b.
19. Hasanboyev J. va boshqalar.Pedagogika fanidan izohli lug‘at, -T.: ”Fan va texnologiya” 2009. 672b.
20. Homidov H. “Shohnoma”ning shuhrati.-T.:O‘zbekiston,1991,93-94.
21. Oila psixologiyasi//Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun. G‘.B.Shoumarov tahriri ostida.T.:”Sharq”2000, 272 b.
22. Oila axloqi va odobi. Tuzuvchilar: X.Uzoqov, E G‘oziyev, L.Oripova-T.: ”O‘qituvchi”1995 200 b.
23. Oila etikasi va psixologiyasi. T.Maqsudov tahriri ostida. T.: O‘qituvchi, 1991, 292 b.
24. Qosimov N.va boshqalar. Globallashuv:oila va farzand tarbiyasi.-T.:”Turon zamin ziyo”2016.7-8b.
25. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin desangiz...,T.: “Ma’naviyat”, 2013 173-174 b.
26. Ochilova B. Milliy-ma'naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik,T.:;”Istiqlol”2009,148-155 b.
- 27.Shoumarov G'. Muhabbat va oilaviy hayot. T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot. 1999, 93 b.
28. Xolmatova M. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash omillari. T.: O'qituvchi, 1998, 21 b.
29. Yusuf Xos Hojib.Qutadg‘u bilig (saodatga yo‘llovchi bilim). Hozirgi o‘zbek tilida bayon qiluvchi va so‘z boshi muallifi B.To‘xliyev,- T.:,Yulduzcha,1990.192b.
- 30.G‘oziyev E. Yosh davrlar psixologiyasi. T.: O'qituvchi. 1994, 223 b.

III. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

1. Abdullayeva D.U. Yoshlarni oilaviy hayotga tayorlashning etnopsixologik xususiyatlari, Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, “Qatortol-kamolot”T.:1999,93-96b.
2. Adizova T.Oiladagi o‘zaro munosabat usullari va o‘smir yoshdagi bolalar shaxsining muloqotga kirishuvchanlik sifatleri/Oila davlat tayanchi(ilmiy maqolalar to‘plami).-T.:1998,48-54b
3. Alimova J. qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o‘rni//Xalq ta’limi jurnali. T., 2001. №38-40 b.
4. Akramova F. Talaba yoshlarni bo‘lajak oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini etnopsixologik xususiyatlari” O‘zbek oilasining iqtisodiy ijtimoiy-psixologik muammolari”mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy ma’ruzalar to‘plami,T.:2000.16-17b
5. Maxmudova M.Ta’lim jarayonida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash mavzusida maqola. Xalq ta’limi ilmiy-metodik jurnal.5-son 2003 y.41-44b.
6. Mustaqillik sharoitida oila va shaxs kamoloti. Ilmiy maqolalar to‘plami. T.: Nizomiy nomidagi DPI, 1997, 73 b.
7. Qosimova O. Qizlar tarbiyasiga doir xorijiy tajriba tahlili. Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish insitutida 2017-yil 29-aprelda “Ijtimoiy fanlarni o‘qitishning dolzarb asalalari: muammolar, yechimlar va istiqboldagi rejalar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.177-178b.
8. Sog‘lom avlod uchun jurnal.2017-yil 4-son.TDTU o‘qituvchisi Komilova J. “Nikoh oldi tibbiy ko‘rigi” mavzusidagi maqolasi.15-17 b.
9. Lutfullayeva N. Oilaning tarbiyaviy ahamiyati, Xalq ta’limi ilmiy metodik jurnal,5-son,45-48b.
10. Mo‘minova G. Daxlsiz hayotning barcha uchun taalluqli muammolari. Zarafshon gazetasi. 2017 yil 20 iyun 78-son, 4-bet.

IV. Dissertatsiyalar

1. Abdullayeva M.O‘smirlarni oilaviy hayotga ma’naviy tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari.mavzusidagi p.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.T.: 2004.
2. Maxmudova M. Xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimi. Ped.fan.dokt.avtoreferati-T.: 2004.40 . (12)
3. Romanova S.E. Qoraqalpoq milliy musiqiy asboblari asosida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini ma’naviy tarbiyalashning pedagogik asoslari. Pedagogika fan.ilm.dar. Avtoreferati. T., 2005. -22 b.
4. Ro‘ziyeva D.I. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped.fan.dok.ilm.dar. Avtoreferati . –T., 2007. -35 bQodirov B.A.Troditsionnaya pedagogicheskaya kultura uzbekskogo naroda:-Avtoref.diss...d.p.n.- M.:1992,33 s
5. Xidirova F. Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari, nomzodlik dissertatsiyasi.T.:2007.20-21b.

V.Elektron ta’lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. www.nutq.intal.uz

**Samarqand 1-son pedagogika kolleji o'quvchilarini oilaviy hayotga
tayyorlashning shakllanganlik darajasini o'rganish**

SO'ROVNOMASI

(1- bosqich o'quvchilari uchun)

Hurmatli o'quvchi! Ushbu so'rovnoma ilmiy tadqiqot maqsadida o'tkazilayapti. Shu bois savollarga holis va mustaqil holda javob berishingizni so'raymiz. Javoblar uchun oldindan raxmat.

1.Oila deganda nimani tushunasiz?

2.Necha yoshdan oila qurish to'g'ri deb o'ylaysiz?

3.Oilaning qanday turlarini bilasiz?

4. To'liq va noto'liq oilalarning farqlarini tushuntiring?

5.O'smirlarni oilaga tayyorlashda kimlarning o'rni muhim deb o'ylaysiz?

6.Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga oid tarbiyaviy tadbirlarda qatnashganmisiz,tadbir sizda qanday taa'ssurot qoldirgan?

**Samarqand 1-son pedagogika kolleji o'quvchilarini oilaviy hayotga
tayyorlashning shakllanganlik darajasini o'rganish**

SO'ROVNOMASI

(2- bosqich o'quvchilari uchun)

Hurmatli o'quvchi! Ushbu so'rovnoma ilmiy tadqiqot maqsadida o'tkazilayapti. Shu bois savollarga xolis va mustaqil holda javob berishingizni so'raymiz. Javoblar uchun oldindan raxmat.

1.Oila va nikoh tushunchalariga ta'rif bering?

2.Oilada va ta'lim jarayonida farzand tarbiyasiga qaysi fanlarning imkoniyatlari ko'proq deb o'ylaysiz?

4.Oilaning qanday vazifalarini bilasiz?

5.To'liq va noto'liq oilalarda tarbiya topayotgan o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi farqlarini tushuntiring?

6.O'smirlarni oilaga tayyorlashda ta'lim muassasalarining o'rni muhim deb o'ylaysiz?

7.Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga oid tarbiyaviy tadbirlarda qatnashganmisiz, tadbir sizda qanday taassurot qoldirgan?

Samarqand 1-son pedagogika kolleji o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning shakllanganlik darajasini o'rganish

SO'ROVNOMASI

(3- bosqich o'quvchilari uchun)

Hurmatli o'quvchi! Ushbu so'rovnoma ilmiy-tadqiqot maqsadida o'tkazilayapti. Shu bois savollarga xolis va mustaqil holda javob berishingizni so'raymiz. Javoblar uchun oldindan raxmat.

1.Oila qurish ostonasida turgan yoshlarda qanday fazilatlar shakllangan bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?

2.Ta'lim muassasangizda o'tiladigan "Oila psixologiyasi"fanining yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi o'rni xususida aytib o'tsangiz?

4.Oilaning kommunikativ vazifasini izohlang?

5.Sizning fikringizcha o'smirning faqat fiziologik jihatdan tayyor bo'lishi uning oila qurishi mumkin deganimi?

6.O'smir yoshlarning o'ziga xos psixologik xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?

7.Oilada farzandlar va ota-onalar bir kunda qancha vaqt o'zaro suhbat qilishi lozim deb o'ylaysiz?

Pedagogika kolleji o'quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashni shakllanganlik darajasini o'rganish
SO'ROVNOMASI
(o'qituvchilar uchun)

Hurmatli ustoz! Ushbu so'rovnoma ilmiy tadqiqot maqsadida o'tkazilayapti. Shu bois savollarga xolis va mustaqil holda javob berishingizni so'raymiz. Javoblar uchun oldindan raxmat.

1. Sizing fikringizcha yoshlar necha yoshda oila qurishga tayyor bo'ladi?

2. O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oila-ta'lim muassasasi+mahalla hamkorligi haqida gapirib o'tsangiz?

4. O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda bugungi kunda pedagogika kollejida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

5. Nikoh oldi tibbiy ko'rigining o'smirlarni oila qurishdagi muhim tomonlari nimada deb o'ylaysiz?

6. Oilada sog'lom avlodni voyaga yetkazishda ota-onaning o'zaro munosabatlaring ta'siri qanday?

7. Bugungi kunda o'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda ma'naviy-axloqiy, psixologik bilimlarni shakllantirishga ehtiyoj bormi?

**O‘smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning shakllanganlik
darajasini o‘rganish
SO‘ROVNOMASI
(ota-onalar uchun)**

Hurmatli ota-onalar! Ushbu so‘rovnoma ilmiy tadqiqot maqsadida o‘tkazilayapti. SHu bois savollarga xolis va mustaqil holda javob berishingizni so‘raymiz. Javoblar uchun oldindan raxmat.

1. Sizing fikringizcha yoshlar necha yoshda oila qurishga tayyor bo‘ladi?

2. O‘smir yoshdagi farzandingiz oila qurishga tayyormi?

3. O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda hamma ota-onalarda ham pedagogic-psixologik bilimlar yetarli deb o‘ylaysizmi?

4. O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq uslubiy qo‘llanmalar, tavsiyalar, ko‘rgazmali vositalar yetarlimi?

5. Oilada sog‘lom avlodni voyaga etkazishda ota-onaning o‘zaro munosabatlaring ta‘siri qanday?

6. O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq qaysi urfodat va ananalarimizdan foydalanilmoqda?

**1-Samarqand pedagogika kolleji 101-guruh talabalarining
RO'YXATI**

T/r	O'quvchining ism va familiyasi
1	Abdunasimova Dinora
2	Abduraxmonova Begoyim
3	Abduraximova Mashxura
4	Akramova Shaxlo
5	Alaqulova Sitora
6	Bahronbekova Maftuna
7	Boboqulova Sitora
8	Ergashova Kamola
9	Ergasheva Ruxsora
10	Erkinova Umida
11	Hotamova Parvina
12	Isayeva Sevinch
13	Javadova Aziza
14	Jo'raqulova Rushana
15	Maxmudova Sidiqabonu
16	Mardonova Shaxnoza
17	Mirzaqulova Rixsibeka
18	Mugdatova Sevda
19	Murodova Marjona
20	Murodova Mehribon
21	Mo'minqulova Sabina
22	Nabiyeva Zilola
23	Nurmatova yulduz
24	Obulova Gulnoza
25	Sadriddinova Mahbuba
26	To'xtamurodova O'g'iloy
27	Xushvaqova Gulinargiz
28	Xudayorova Saodat
29	O'roqboyeva Muxlisa
30	G'aniyeva Zulayho
31	Sharipova Farida

Guruh rahbari:

Qilicheva S.

**1-Samarqand pedagogika kolleji 102-guruh talabalarining
RO'YXATI**

T/r	O'quvchining ism va familiyasi
1	Abdujamolova Sabina
2	Abdurashidova Muxlisa
3	Abjalilova Fotima
4	Abjalilova Zuxra
5	Aliboyeva Muxlisa
6	Aliqulova Dilnoza
7	Amonova Mavluda
8	Asrorova Gulyora
9	Azimova Zuxra
10	Erkinova Mexrangiz
11	Jalilova Sabrina
12	Jumaboyeva Xolida
13	Jo'rayeva Mexribon
14	Karimboyeva Xaticha
15	Karimova Orzigul
16	Qilicheva Maftuna
17	Qutbiyeva Dinora
18	Maxmayusupova Xushnoza
19	Musurmonova Shahlo
20	Narziqulova Nazira
21	Narzullayeva Xusnibonu
22	Olimjonova Moxichexrai
23	Rustamova Sevara
24	Shamsiyeva Komila
25	Turakulova Mukarram
26	Xushmurodova Farangiz
27	Yusupova Yulduz
28	Ibragimova Sabina
29	Absalomova Ozoda
30	Norbekova Dilfruz
31	Kurbanova Zarina
32	Umarova Farida

Guruh rahbari:

Usmonov A.

**1-Samarqand pedagogika kolleji 201-guruh talabalarining
RO'YXATI**

T/r	O'quvchining ism va familiyasi
1	Ablakulova Hulkaroy
2	Amanova Zaynura
3	Axmedova Aziza
4	Ashurova Sabina
5	Ashurova Sitora
6	Bormaxmadova Lola
7	Boshmonova Mehribon
8	Fayzullayeva Bonu
9	Hamidova Munisa
10	Hamidova Sevinch
11	Ibragimova Baxtigul
12	Islomova Hilola
13	Murodova Sarvinoz
14	Murodullayeva Maftuna
15	Nuriddinova Nigina
16	Olmurodova Dinora
17	Orolova Shaxzoda
18	Qurolova Saidaxon
19	Sidiqova Obodgul
20	Sobirova Gulmira
21	Tog'aymurodova Maftuna
22	To'raqulova Nargiza
23	Umarova Kubaro
24	Voxidova Surayyo
25	Xamrayeva Maftuna
26	Xamrayeva Sevara
27	Xasanova Zarina
28	Shukurullayeva Sh
29	Ro'ziyeva Mohigul
30	Amirova Nasiba

Guruh rahbari:

Bo'riboyev M.

**1-Samarqand pedagogika kolleji 202-guruh talabalarining
RO'YXATI**

T/r	O'quvchining ism va familiyasi
1	Abdumurodova Shaxodat
2	Abdusalomova Shoxsanam
3	Erkinova Barchinoy
4	Egamberdiyeva Dildor
5	Fayzullayeva Tozagul
6	Ibragimov Islom
7	Ismatullayeva Manzura
8	Isroilova Mohina
9	Izatullayeva Fazolat
10	Mavlonova Gulxayo
11	Meliboyeva Intizor
12	Namozova Umida
13	Nishonova Muborak
14	Normurodova Dinora
15	Nurmamatova Sarvinoz
16	Nursaitova Muxlisa
17	Qaxxorova Muxlisa
18	Qaxxorova Qursiya
19	Ro'zimurodova Gulbahor
20	Suyunboyeva Sabina
21	Siyapparova Sevinch
22	Suyarova Kamola
23	To'ychiyeva Zarina
24	Turopova Xumora
25	Ubaydullayeva Munisa
26	Vafoyeva Albina
27	Xoliqulova Ozoda
28	Xudoyqulova Farida
29	G'aybullayeva Dinara
30	Nurimova Nafisa

Guruh rahbari:

Qurbonova D.

**1-Samarqand pedagogika kolleji 301-guruh talabalarining
RO'YXATI**

T/r	O'quvchining ism va familiyasi
1	Abduxakimova Mohinur
2	Aliyeva Gulnoza
3	Azimova Nigora
4	Bolqisheva Bahtigul
5	Ergasheva So'g'diyona
6	Ernazarov Abbos
7	Eshboyeva Nozanin
8	Jumanazarov Sindor
9	Murodova Umida
10	Nishonova Nigora
11	Nishonova Zarina
12	Olimova Bahora
13	Ochilova Ozoda
14	Qobilova Fazilat
15	Radjabaliyeva Umida
16	Raxmonberdiyeva D
17	Rafiqova Gulafzal
18	Rustamova Nilufar
19	Turayeva Sabogul
20	To'g'onboyeva Fotima
21	Umarova Marjonabonu
22	Xalilova Sojidaoy
23	Xudoyberdiyeva Zarifa
24	Xusaynova Gulsanam
25	G'aybullayeva Gulsanam
26	Sodiqova Shoxida

Guruh rahbari:

Maxaddinova K.

**1-Samarqand pedagogika kolleji 302-guruh talabalarining
RO'YXATI**

T/r	O'quvchining ism va familiyasi
1	Abdullayeva Yulduz
2	Abdurasulova Nasiba
3	Akramov Muxammad
4	Amidiyeva Milena
5	Berdiyeva Guliston
6	Ergasheva Baxora
7	Fozilova Iroda
8	Joirov Laziz
9	Karimova Marjona
10	Malikov Zayniddin
11	Mustafayeva Farida
12	Nosirova Tursunoy
13	Norboboyeva Ro'zigul
14	Nomozova O'g'iloy
15	Oynayeva Zarina
16	Quvondiqova Gulzebo
17	Qurbonov Shahzod
18	Rashidova Shaxnoza
19	Toshtemirov Bobur
20	To'xboyev G'ayrat
21	To'xtashova Gulmira
22	Xosilov Ramziddin
23	Xushnazarova Shalola
24	Umirzoqov Sindor
25	Shodiyev Tal'at
26	Shodiyorova Shaxlo
27	Shirinboyeva Maxliyo

Guruh rahbari:

Qo'ziyeva X.